2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 200 (1799), 2026-yil 26-sentabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XITOY DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-sentabr kuni Xitoy Xalqaro madaniy kommunikatsiya markazi raisi Long Yuysyan va Gonkongning “JDB Group” kompaniyasi asoschisi Chan Xuntoni qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Markaz mamlakatimizning Xitoy bilan ko‘p qirrali hamkorligini mustahkamlashga katta hissa qo‘shib kelayotgani qayd etildi. Birgalikda infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalar va “yashil” sanoat sohalarida qator loyihalar amalga oshirildi.

“JDB Group” kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida zamonaviy shahar, transport va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish hamda geologiya sohasi belgilandi.

Uchrashuv yakunida mazkur kompaniya ishtirokida amalga oshirilayotgan va yangi loyihalarni jadallashtirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI VA GRUZIYA BOSH VAZIRI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Irakliy Kobaxidzeni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, Gruziya xalqiga farovonlik va bardavom ravnaq tiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 2-3-iyul kunlari Gruziyaga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Gruziya strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro savdo hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, shuningdek, Gruziyaning Poti va Anakliya portlari infratuzilmasidan samarali foydalanish orqali transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zA

AGRAR SOHADA SUBSIDIYA AJRATISH VA SUG‘URTALASH TIZIMLARI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev agrar sohada subsidiyalarni ajratish va sug‘urtalash tizimlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lami kengayib, subsidiyalarni ajratish jarayonlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Joriy yilda sohadagi subsidiyalar soni 29 ta yo‘nalish va 91 ta turga yetkazilib, bu maqsadlarga 2,7 trillion so‘m mablag‘ ko‘zda tutilgan. Qator yo‘nalishlarda arizalar proaktiv shakllantirilib, to‘lov muddatlari sezilarli qisqartirildi.

Taqdimotda endi subsidiyalarni shunchaki xarajatni qoplashga emas, balki aniq natijaga bog‘lash zarurligi ta’kidlandi. Kelgusi yildan “mablag‘ ajratish” modelidan “natijaviy subsidiya” modeliga bosqichma-bosqich o‘tish taklif qilindi.

Yangi tizimda hosildorlik, suv hamda energiya tejamkorligi, sarflangan resurslar evaziga olingan mahsulot hajmi asosiy mezon bo‘ladi. Barcha ma’lumotlar tegishli davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlaridan inson omilisiz olinadi. Har bir subsidiya oluvchining elektron pasporti shakllantirilib, natijalar onlayn kuzatib boriladi.

Dastlab ushbu mexanizm suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishida sinovdan o‘tkaziladi. Subsidiya ajratilgandan keyin ikki-uch yil davomida suv sarfi, hosildorlik va suv unumdorligi baholanadi. Belgilangan ko‘rsatkichlar bajarilmasa, subsidiya mablag‘ini qaytarish mexanizmi qo‘llaniladi. Bu davlat mablag‘larining manzilli va samarali sarflanishini ta’minlaydi.

Taqdimotda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi tizimini takomillashtirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda “Agrosafe” axborot tizimi orqali elektron ariza berishdan tortib, shartnoma va polisni rasmiylashtirish, monitoring, ekspertiza hamda tovon pulini to‘lashgacha bo‘lgan jarayonlar raqamlashtirilgan.

Sug‘urta qamrovini kengaytirib, bog‘ va uzumzorlardagi ko‘chat va daraxtlar, import qilingan chorva hamda tasodifiy hodisalar bilan bog‘liq xavflarni ham sug‘urtalash rejalashtirilgan. Shuningdek, chorvachilik, polizchilik, kartoshka va piyoz yetishtirish uchun yangi sug‘urta mahsulotlari joriy etiladi.

2027-yilda 45 mingta qishloq xo‘jaligi korxonasini sug‘urta bilan qamrab olish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sug‘urta qamrovini 60 foizga yetkazish, 500 nafar mustaqil ekspert tayyorlash hamda sug‘urta xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish maqsad qilingan.

Yangi yondashuvda zarar oqibatlarini qoplash bilan birga xavflarning oldini olishga ham ustuvor ahamiyat beriladi. Sug‘urta mukofotining 3-5 foizini maxsus jamg‘armada shakllantirib, chorvachilikda vaksinatsiya, profilaktika va veterinariya xizmatlariga, paxta va g‘allachilikda biologik himoya tadbirlariga, bog‘dorchilik va uzumchilikda esa tabiiy ofatlardan himoya vositalarini o‘rnatishga yo‘naltirish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari subsidiya va sug‘urta tizimlari, eng avvalo, fermer uchun sodda va qulay bo‘lishi, davlat mablag‘lari aniq natijaga xizmat qilishi zarurligini ta’kidladi. Jarayonlarda inson omilini qisqartirish, shaffoflikni ta’minlash, sug‘urta hodisalarini adolatli baholash va tovon pullarini tezkor to‘lash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Mutasaddilarga bildirilgan takliflarni takomillashtirib, tegishli huquqiy hujjatlar loyihalarini kiritish vazifasi qo‘yildi.

O‘zA

JAHON AMALIYOTIGA INSON HUQUQLARI BO‘YICHA “SAMARQAND RUHI”NI OLIB KIRGAN AN’ANAVIY FORUM

Xalqaro anjuman oldidan

Joriy yilda Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumiga asos solinganiga 8 yil bo‘ldi. An’anaviy tarzda har ikki yilda o‘tkazib kelinayotgan ushbu xalqaro anjuman qisqa muddatda inson huquqlarining turli sohalariga taalluqli dolzarb masalalarni muhokama etish va samarador yechimlar topish borasida dunyo miqyosida kam uchraydigan noyob, qulay va o‘ziga xos muloqot maydoniga aylandi.



Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Yurtimizda ilk bor 2018-yilda o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi jahon amaliyotiga o‘ziga xos “Samarqand ruhi”ni olib kirdi desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu tariqa inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumlarini o‘tkazish yaxshi an’ana tusini oldi”.

Shu yil sentabr oyining so‘nggi kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Inson huquqlari bo‘yicha V Samarqand forumi bo‘lib o‘tadi. Fikrimizcha, navbatdagi an’anaviy forum arafasida uning tarixiga atroflicha nazar solish ayni muddao.

Davomi 3-betda

KORRUPSIYAGA QARSHI ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLARGA SODIQMIZ



Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sahifalaridan biri, shubhasiz, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishiga aylanganidir. Eng muhimi, bu siyosatning asosiy mohiyati va maqsadi korrupsiyaning oqibati bilan kurashish emas, balki unga imkon beradigan sharoitlarni bartaraf etish, davlat xizmatini tom ma’noda xalqqa xizmat qiladigan institutga aylantirish va har bir odamda “qonun hammaga barobar” degan ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

Aslida, yangi O‘zbekistonning yangi tarixi ham ana shu yerdan — davlatda halollik, jamiyatda adolat, har bir inson hayotida qonun ustuvor bo‘lgan muhitni barpo etishdan boshlanadi. Xususan, 2017-yili “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, avvalo, siyosiy iroda va katta jasorat edi. Chunki korrupsiya haqida ochiq gapirish, ildizlarini tan olish va unga qarshi tizimli kurashish — muammoni yashirishdan ko‘ra ancha murakkab va katta mas’uliyat talab qiladigan og‘ir va sinovli yo‘l edi. Shunga qaramay, bu iroda faqat hujjatlarda qolib ketmadi. Aksincha qat’iy talablar, izchil islohotlarga aylandi.

Davomi 4-betda

ANDIJON TAJRIBASI:

BUNYODKORLIK, INVESTITSIYA VA AHOLI MANFAATLARI UYG‘UNLASHAYOTGAN YANGI TARAQQIYOT MANZARASI



Andijon — azaldan mehnatsevarligi, tadbirkorlik ruhi, sanoat salohiyati va yangilikka intilishi bilan ajralib turgan zamin. Bugun esa bu yerda kechayotgan o‘zgarishlar hudud taraqqiyotining yangi bosqichi shakllanayotganini ko‘rsatmoqda.



Prezidentimizning Andijon viloyatiga navbatdagi tashrifi doirasida ko‘zdan kechirilgan yirik investitsiya loyihalari, yangi ishlab chiqarish quvvatlari, ta’lim va tibbiyot obyektlari, zamonaviy texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, turizm hamda infratuzilma loyihalari ana shu yangilanishlarning turli qirralarini namoyon etdi.

23-sentabr kuni Andijonda umumiy qiymati 9,4 milliard dollarlik 206 ta loyihaning taqdim etilgani, ularning 98 tasi ishga tushirilgani, 108 tasining qurilishi boshlangani hududdagi iqtisodiy jarayonlar ko‘lamini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu loyihalar natijasida 45 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratilishi, yiliga 60,6 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilishi va 533 million dollarlik eksport salohiyati shakllanishi rejalashtirilgan.

Biroq senator sifatida men uchun ushbu raqamlardan ham muhimroq jihat bor: Andijonda bugun faqat yangi korxonalar emas, balki inson kapitali, texnologiya, investitsiya, ta’lim, ishlab chiqarish va xizmatlarni o‘zaro bog‘laydigan yangi iqtisodiy muhit shakllanmoqda.

Davomi 2-betda

ANDIJON TAJRIBASI: BUNYODKORLIK, INVESTITSIYA VA AHOLI MANFAATLARI UYG‘UNLASHAYOTGAN YANGI TARAQQIYOT MANZARASI

Munosabat



Qutbiddin BURHONOV, senator

Boshlanishi 1-betda

Investitsiya haqida so‘z borganda, odatda milliardlab dollar, ishlab chiqarish hajmi, eksport va yangi korxonalar soni tilga olinadi. Albatta, bular muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlar. Ammo investitsiyaning eng muhim ijtimoiy samarasi inson hayotida namoyon bo‘ladi. Yangi zavod — yangi ish o‘rni, yangi texnologiya — yangi kasb, yangi texnikum — malakali mutaxassis, yangi yo‘l — tejalgan vaqt, yangi eksport korxonasi — oila va hudud daromadining o‘sishi, yangi sanoat kooperatsiyasi esa kichik biznes uchun yangi bozor demakdir.

Shu ma’noda, Andijonda amalga oshirilayotgan loyihalarni bir-biridan alohida ko‘rish to‘g‘ri emas. Ular bir-birini to‘ldiradigan, hududning iqtisodiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadigan yagona jarayonning tarkibiy qismlaridir. Energetika, mashinasozlik, to‘qimachilik, qurilish, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, logistika, ta’lim, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi loyihalar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash bilan birga yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish imkonini bermoqda.

Endi asosiy vazifa investitsiyani jalb qilishning o‘zi bilan cheklanmasdan, uni mahalliy iqtisodiyotga chuqur singdirishdir. Buning uchun mahalliylashtirish, kooperatsiya, kadrlar tayyorlash, texnologiyalarni o‘zlashtirish va eksport salohiyatini oshirishga bir vaqtning o‘zida e’tibor qaratish lozim.

Andijon tumanida tashkil etilayotgan “Andijon Jinlun yangi energiya” korxonasi misolida investitsiyaning ana shu yangi mazmunini ko‘rish mumkin. 20 million dollar to‘liq xorijiy investitsiya asosida amalga oshirilayotgan ushbu loyihada kichik gidroelektr stansiyalar uchun uskunalar ishlab chiqariladi. Korxona to‘liq quvvatga chiqqach, yiliga 100 ta kichik GES majmuasi uchun uskunalar ishlab chiqarishi, 200 ta yangi ish o‘rni yaratishi va mahsulotlarni qo‘shni davlatlarga eksport qilishi rejalashtirilgan.

Bu oddiy ishlab chiqarish loyihasi emas. U mamlakatda kichik va mikro-GESlar tarmog‘ini rivojlantirish bilan birga energetika sohasida mahalliy sanoat bazasini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Ya’ni energiya ishlab chiqarish, uskuna tayyorlash, muhandislik, servis xizmati, texnik mutaxassislar tayyorlash va eksport bir zanjirga birlashmoqda.

Bunday yondashuvni shartli ravishda



“resurs — mahsulot — texnologiya — eksport” zanjiri deb atash mumkin. Ayniqsa, Andijonning suv resurslari, jumladan, Katta Farg‘ona kanali salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari bu yo‘nalishga qo‘shimcha turtki beradi. Eng muhimi, “yashil” energetika endilikda faqat ekologik masala emas. U yangi sanoat tarmoqlari, kasblar, investitsiyalar va eksport bozorlarini shakllantiruvchi iqtisodiy omilga aylanmoqda.

Har qanday iqtisodiy islohotning uzoq muddatli natijasi, avvalo, kadrlarga bog‘liq. Zamonaviy zavod qurish, eng so‘nggi texnologiyalarni olib kelish mumkin. Ammo ushbu texnologiyani boshqaradigan, uni takomillashtiradigan va yangi yechimlar yaratadigan mutaxassis bo‘lmasa, investitsiyaning samarasi cheklanib qoladi.

Shu nuqtayi nazardan, Andijon-Huanya xalqaro texnikumida yo‘lga qo‘yilayotgan dual ta’lim tizimi alohida ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchi nazariy bilimni ta’lim muassasasida, amaliy ko‘nikmani esa ishlab chiqarish korxonasida egallaydi. Bu ta’limni mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog‘lashning amaliy mexanizmi.

Bugun 210 o‘quvchini qamrab olgan texnikumda 2030-yilga borib, yillik qabulni 1800 nafarga, umumiy o‘quvchilar sonini 4 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Bu raqamlar ortida bitta muhim maqsad bor: Andijon sanoati bugun qanday kadrga muhtoj bo‘lsa, ta’lim tizimi ertaga aynan shunday mutaxassisni tayyorlashi kerak.

Zamonaviy ta’limning asosiy savoli ham shu: “Bitiruvchi qayerda ishlaydi?” emas, balki “Hudud iqtisodiyotiga qanday mutaxassis kerak?”. Andijonda shakllanayotgan tajriba bu ikki jarayon — ta’lim va ishlab chiqarishni bir-biriga yaqinlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xo‘jaboddagi Andijon texnoparki ham hudud sanoati kelajagini belgilaydigan loyihalardan biri. 100 gektar maydonda 51 ta sanoat korxonasini joylashtirish va 3 mingta yangi ish o‘rni yaratish rejasi sanoat kooperatsiyasini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Ayniqsa, “aqlli” suv hisoblagichlar ishlab chiqarilishi zamonaviy texnologiyalarni real iqtisodiyot bilan bog‘lash nuqtayi nazaridan muhim. Robotlashtirilgan ishlab chiqarish, 5G texnologiyasiga asoslangan hisoblagichlar, mahalliylashtirish darajasini oshirish rejalari — bularning barchasi texnologik iqtisodiyotga o‘tish jarayoni belgilaridir.

Lekin mahalliylashtirishni faqat import o‘rnini bosish deb tushunmaslik kerak. Mahalliylashtirish yangi korxonalar, butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar, muhandislar, texnologlar va kichik biznes o‘rtasida kooperatsiya zanjirini yaratish demakdir. Agar yirik korxona atrofida o‘nlab va yuzlab mahalliy tadbirkor o‘z mahsuloti yoki xizmati bilan ishtirok etsa, investitsiyaning multiplikativ samarasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Aholi zich, yer resurslari cheklangan Andijon uchun qishloq xo‘jaligida ekstensiv emas, intensiv rivojlanish modeli muhim. “Agroklaster Oltinko‘l”da sinovdan o‘tkazilayotgan zamonaviy agrotexnologiyalar buning bir misolidir. Chigitni plyonka ostiga qo‘shqator ekish, tomchilatib sug‘orish, o‘g‘itdan samarali foydalanish va dron texnologiyalarini qo‘llash orqali hosildorlikni oshirish, suv va resurslar sarfini kamaytirish maqsad qilinmoqda.

Bu yerda eng muhim masala faqat hosildorlik emas. Biz qishloq xo‘jaligida “qancha yer bor?” degan savoldan “mavjud yer va suvdan qancha qo‘shilgan qiymat yarata olamiz?” degan savolga o‘tishimiz kerak. Bu — suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi va oziq-ovqat xavfsizligi sharoitida tobora dolzarb bo‘lib borayotgan yondashuv.

Baliqchilik va parrandachilik sohalaridagi loyihalar ham Andijonda yangi iqtisodiy modellar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Baliqchi tumanidagi intensiv baliqchilik loyihasida suvni qayta ishlatish, quyosh panellaridan foydalanish va foydalanilgan suvni qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirish kabi yondashuvlar qo‘llanilayotgani e’tiborga molik.

Bunda yana bir jihat — mahallalardagi xonadonlarni kooperatsiya asosida ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish. Chunki iqtisodiy o‘sish samarasi faqat yirik korxonada qolib ketmasligi, mahalla, oilaviy tadbirkorlik, fermer xo‘jaligi va kichik biznesga ham tarqalishi kerak.

Parrandachilikda ozuqa tayyorlashdan tortib, yetishtirish, so‘yish, qayta ishlash, qadoqlash va iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan to‘liq zanjir shakllanishi shu maqsadga xizmat qiladi. Ya’ni qo‘shilgan qiymatni xomashyo holatida tashqariga chiqarish emas, uning katta qismini hududning o‘zida yaratish imkoni paydo bo‘ladi.

Bugungi taraqqiyotni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Baliqchi tumanidagi Sun’iy intellekt markazida yoshlarni dasturlash, marketing va robototexnika yo‘nalishlariga o‘qitish, tadbirkorlarga sun’iy intellekt asosida xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgani ana shu o‘zgarishning muhim ko‘rinishidir.

Sun’iy intellekt endi faqat AT soha mavzusi emas. U ishlab chiqarish, logistika, qishloq xo‘jaligi, marketing, moliya va xizmat ko‘rsatish sohalarining ishlash usulini o‘zgartirmoqda. Shuning uchun yoshlarga faqat kompyuterdan foydalanishni emas, texnologiya yordamida real iqtisodiy muammolarni hal qilishni o‘rgatish muhim.

Markaz tomonidan 500 dan ortiq tadbirkorlik subyektiga xizmat ko‘rsatilgani va bu xizmatlar qiymati 8,5 milliard so‘mni tashkil etgani ta’lim, texnologiya va biznesning bir nuqtada tutashishi qanday amaliy samara berishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Andijonning iqtisodiy salohiyati faqat sanoat va qishloq xo‘jaligidan iborat emas. Asakaning ekoturizm imkoniyatlari, Andijon shahridagi gastronomik turizm ko‘chasi kabi loyihalar xizmatlar sohasining yangi o‘sish nuqtalarini shakllantirmoqda.

Gastronomik turizm ko‘chasida savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etilishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, aholi va sayyohlar oqimi uchun qulay muhit shakllanishi shahar infratuzilmasi va tadbirkorlikni bir-biri bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Turizmning yana bir muhim jihati shundaki, u ko‘plab kichik biznes subyektlarini bir vaqtning o‘zida iqtisodiy jarayonga jalb etadi. Mehmonxona, umumiy ovqatlanish, transport, hunarmandlik, savdo, madaniy xizmatlar — bularning barchasi turizm zanjirining tarkibiy qismlariga aylanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotni faqat zavodlar va investitsiya hajmi bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Infratuzilma sifati ham inson hayotining muhim qismi.

Andijon shahrida Bobur shoh ko‘chasining ikki qismini bog‘lovchi yangi yo‘lo‘tkazgich barpo etilishi bunga yaqqol misol. 796 metrli ushbu inshoot 140 ming aholi uchun aylanma yo‘l masofasini qisqartirish imkonini beradi.

Bu oddiy transport masalasi emas. Tejalgan vaqt — tadbirkor uchun iqtisodiy resurs. Qulay harakat — ishchi uchun vaqt. Qisqargan masofa — tezkor tibbiy yordam uchun muhim omil. Shu bois, yo‘llar, ko‘priklar va yo‘lo‘tkazgichlarning ahamiyatini faqat qurilish qiymati yoki uzunligi bilan emas, balki odamlar hayotiga bergan qulayligi bilan ham baholash zarur.

Andijondagi jarayonlarni yaxlit manzara sifatida ko‘rsak, o‘zaro bog‘liq bir necha yo‘nalishni ko‘ramiz: investitsiya ishlab chiqarishni kengaytirmoqda, sanoat yangi ish o‘rinlari yaratmoqda, ta’lim yangi iqtisodiyot uchun kadr tayyorlamoqda, raqamlashtirish mehnat unumdorligini oshirish imkonini bermoqda, mahalliylashtirish ichki kooperatsiyani kuchaytirmoqda, eksport yangi bozorlarga yo‘l ochmoqda, qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda, turizm va xizmatlar aholi daromadlarining yangi manbalarini shakllantirmoqda, infratuzilma esa hududlar va odamlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirmoqda.

Bu jarayonlarning barchasini birlashtirib turgan asosiy mezon inson manfaatidir.

Iqtisodiy o‘sishning haqiqiy qiymati ham shunda namoyon bo‘ladi. Ya’ni yaratilgan qiymat insonning daromadi, bandligi, bilimi, kasbiy salohiyati, turmush sharoiti va kelajakka ishonchida aks etishi kerak.

Shu bilan birga, har qanday investitsiya loyihasi ishga tushirilishi — yakuniy natija emas. Haqiqiy samara korxona to‘liq quvvatga chiqqan, ish o‘rinlari barqaror bo‘lgan, mahsulot bozorda o‘z o‘rnini topgan, eksport hajmi oshgan va mahalliylashtirish chuqurlashgan taqdirdagina namoyon bo‘ladi.



Shu nuqtayi nazardan, parlament vakillari sifatida biz investitsiya loyihalarining belgilangan ko‘rsatkichlari va real natijadorligini tizimli monitoring qilish, mahalliylashtirish va kooperatsiyani kuchaytirish, ta’lim dasturlarini yangi sanoat va texnologiyalar ehtiyojlariga moslashtirish, eksport qiluvchi korxonalarning xalqaro standartlar va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, “yashil” energetika, suv tejovchi texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga doimiy e’tibor qaratishimiz zarur.

Eng muhimi, har bir loyiha bo‘yicha “qancha mablag‘ sarflandi?” degan savol bilan birga “qancha yangi qiymat yaratildi, qancha barqaror ish o‘rni paydo bo‘ldi va bu natija aholi hayotiga qanday ta’sir qildi?” degan savol ham qo‘yilishi lozim.

Andijonda bugun qilinayotgan ishlar ortida faqat milliardlab dollar investitsiya yoki yuzlab loyihalar emas, balki minglab insonlar mehnati, tadbirkorlar tashabbusi, investorlar ishonchi va yoshlarning intilishlari mujassam.

9,4 milliard dollarlik 206 ta loyiha — katta ko‘lam. Ammo uning haqiqiy mazmuni yangi ish o‘rni yaratilgan insonda, zamonaviy kasb egallayotgan yoshda, o‘z xonadonida daromad topayotgan oilada, eksportga chiqarilayotgan mahsulotda, yangi texnologiyani o‘zlashtirayotgan mutaxassisda namoyon bo‘ladi.

Kichik GESlar uchun uskunalar ishlab chiqarish “yashil” energetika va sanoatning bir nuqtada uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi. Texnoparklar — yangi kooperatsiya va mahalliylashtirish maydoni. Texnikumlar — inson kapitali poydevori. Sun’iy intellekt markazlari — raqamli iqtisodiyot laboratoriyasi. Intensiv qishloq xo‘jaligi — cheklangan resurslardan ko‘proq qiymat olish imkoniyati. Turizm loyihalari — hududning tabiiy va madaniy salohiyatini iqtisodiy faollikka aylantirish vositasi. Yangi infratuzilma esa odamlar, hududlar va imkoniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omildir.

Nazarimda, bugungi Andijonni bir ibora bilan ifodalash mumkin: bu — imkoniyatlarni natijaga aylantirish davri.

Endilikda asosiy vazifa bu sur’atni izchil davom ettirish, har bir investitsiya samaradorligini ta’minlash, har bir yangi korxonani mahalliy iqtisodiyot bilan bog‘lash, har bir yoshga zamonaviy kasb va bilim egallash imkonini yaratish, iqtisodiy o‘sish natijalarini esa inson farovonligida yanada yaqqol namoyon etishdir.

Andijonda buning uchun salohiyat ham, tadbirkorlik ruhi ham, mehnatsevar xalq ham, yoshlar ham bor. Bugun qurilayotgan korxonalar, texnoparklar, ta’lim markazlari, energetika obyektlari, yo‘llar va zamonaviy infratuzilma aslida ertangi Andijonning poydevoridir.

Bu poydevorning eng mustahkam ustuni esa inson. Uning mehnati, bilimi, tashabbusi va kelajakka ishonchidir.



Shukuh

O‘QITUVCHILAR UCHUN KENG IMKONIYATLAR ESHIGI OCHILDI

Prezidentimizning viloyatimizga tashrifini katta qiziqish, hayajon bilan kuzatdim. Hatto tun qorong‘isida ham Andijonda qilinayotgan ishlar bilan tanishgani, mas’ullarga tegishli vazifalar, maslahatlar bergani chinakam jonkuyar mamlakat yetakchisiga xos g‘ayrat va shijoat namunasi bo‘ldi.



Manzura DADABOYEVA, Andijon tumani Bobur shahridagi 1-maktab direktori

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, viloyatimizda qilingan ishlar ko‘p. Lekin oldinda vazifalar ham kam emas. Aholisi zich bo‘lgan viloyatimizda uy-joy muammosi yil sayin dolzarb bo‘lib bormoqda. Shuning uchun adirliklarda go‘zal shaharchalar barpo etilyapti. Jumladan, ezgu niyatlar bilan yaratilgan Bobur shahri ham kundan kunga chiroy ochib boryapti. Bu yerdagi sharoitlarni ko‘rib, havas qilayotganlar ko‘p. Viloyatdagi 25 ming kishi ko‘p qavatli uylarga ko‘chib keldi. Odamlarga munosib yashash sharoiti yaratish maqsadida bu yerda yana 200 ming kishiga mo‘ljallangan uy-joylar qurilishi boshlandi. Maktabimizda o‘quvchilar soni keskin ortib borayotgani yangi shaharda yetarlicha sharoit mavjudligiga yaqqol misoldir. O‘quvchilarning bilim olishdan tashqari kasb-hunar egallashi, chet tillarni o‘rganishi uchun o‘quv markazlari, sport bilan shug‘ullanishi uchun sport to‘garaklari ochilgan. Biz, pedagoglar ushbu imkoniyatlardan ruhlanib, bolalarimizga zamonaviy ta’lim, go‘zal tarbiya berishga harakat qilayotganimiz haqida yig‘ilishda ham to‘lqinlanib gapirdim.

Darhaqiqat, o‘quvchilarimizni yuksak ma’naviyat egalari etib voyaga yetkazish, ta’lim sifatini ko‘tarish, o‘g‘il-qizlarimizning OTMga kirish ko‘rsatkichini oshirish birinchi galdagi vazifamiz. Yangi maktabimizning ilk bitiruvchilari 100 foiz oliy ta’limga o‘qishga qabul qilindi.



Maktabimiz 1680 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, ayni paytda 70 dan ziyod pedagog 1200 dan ortiq o‘g‘il-qizga ta’lim-tarbiya berib kelmoqda. Faoliyatimda o‘quvchilarning oliy ta’limga to‘liq o‘qishga kirishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratganim va bunday natija davomli bo‘lgani uchun 2023-yili II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlandim.

Keyingi yillarda respublikamizning barcha hududida maktab ta’limi sifatini tubdan yaxshilashga jiddiy e’tibor berilyapti. Ayniqsa, olis hududlardagi maktablarda ishlayotgan o‘qituvchilarga alohida imtiyozlar taqdim etilayotgani ham islohotlarning eng chekka manzillarga kirib borayotganiga yaqqol misol. Shuning uchun ham bugun o‘qituvchilar olis, tog‘li hududlarga borib, dars o‘tishdan bosh tortmayapti. Aksincha, maoshiga teng barobar qo‘shiladigan halol, yuqori daromaddan mamnun bo‘lib ishlayapti. Aks holda, 1000-2000 dollar maosh olayotgan o‘qituvchilar soni kundan kunga ko‘paymasdi. Mana shunday sharoit yaratib berayotgani uchun davlatimiz rahbaridan cheksiz minnatdormiz. Bizga bildirilayotgan alohida ishonchga javoban ertamiz egalarining yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini oshirishga mahkam bel bog‘laymiz. Binobarin, bugun o‘qituvchilar dorilamon kunlarda yashayapti, ular uchun mislsiz imkoniyatlar eshik ochdi.

Xalqaro anjuman oldidan

JAHON AMALIYOTIGA INSON HUQUQLARI BO‘YICHA “SAMARQAND RUHI”NI OLIB KIRGAN AN’ANAVIY FORUM



Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi direktori, akademik

Boshlanishi 1-betda

Inson huquqlari bo‘yicha I Samarqand forumi: 2018-yil noyabr

Dastlabki Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumi BMT tashkil etilganidan keyingi 70 yilda Osiyo mintaqasida ilk marta “Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi” sifatida tashkil etildi. U “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi yakunlari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik” mavzusiga bag‘ishlandi.

Inson huquqlari bo‘yicha I Samarqand forumi jahonda, jumladan, Janubi-sharqiy Osiyodan tortib, Yaqin Sharqqacha bo‘lgan makonda qurolli to‘qnashuvlar kuchayib, o‘zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlar va konfessiyalararo ixtiloflar chuqurlashgan, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar kuchaygan murakkab sharoitda o‘tkazildi.

Shu ma’noda, Prezidentimiz forum ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida: “Bizning qat’iy ishonchimizga ko‘ra, jami 4,5 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Osiyo mintaqasining kelajagi ko‘p jihatdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilga qadar barqaror taraqqiyot sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tayyor bo‘lishga, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali mintaqaviy mexanizmni shakllantirishga bog‘liq”, deb ta’kidlangani bejiz emas.

Xalqaro anjuman yakunida BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasi hujjati sifatida tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston parlamenti inson huquqlarining “Samarqandcha ruhi”ni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqladi.

Ushbu hujjatlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, bu ezgu ishni yangi, yanada yuksak pog‘onaga olib chiqishga xizmat qildi.

Inson huquqlari bo‘yicha II Samarqand forumi: 2020-yil 12-13-avgust

Inson huquqlari bo‘yicha ikkinchi Samarqand forumi “Yoshlar — 2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari” mavzusiga bag‘ishlandi. O‘zbekiston Prezidentining Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand veb-forumi ishtirokchilariga tabrigida e’tirof etilganidek, “Kelajakka intilib yashaydigan yosh avlod sayyoramizda farovon hayot va yuksak taraqqiyot barqaror bo‘lishi uchun yangi g‘oyalar va ijodiy ruhdagi sa’y-harakatlarni amalga oshiradigan beqiyos kuchdir”.

Prezidentimiz tabrikda, shuningdek, “BMTning Yoshlar strategiyasida ta’kidlanganidek, “yoshlar siymosida eng qimmatli va o‘ta muhim resurslar mujassam topgan bo‘lib, unga har qancha investitsiya kiritsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo‘lib qaytadi. Men g‘oyat muhim ushbu fikrga to‘liq qo‘shilaman”, deya qayd etdi.

Forum ishtirokchilarining fikricha, bugun dunyoda yoshlar aholining 2 milliarddan ziyod qismini tashkil qilmoqda. Bu aksariyat mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham aholining o‘sib boradigan katta qismi yoshlardan iborat deganidir. Shu ma’noda, yoshlarning barcha huquqlarini, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlarni himoya qilish va ta’minlash uchun yanada ko‘p harakat qilish lozim.

Samarqand forumida ta’kidlanganidek, BMT doirasida va undan tashqarida yoshlar masalasi tez-tez muhokama markaziga qo‘yilmoqda. Ammo global rivojlanish davrida oldinga qarab qadam qo‘yish zarurati mavjud. Shu nuqtayi nazardan, ishtirokchilarning baholashicha, Samarqand veb-forumi yer yuzidagi yoshlarning hayotini yaxshilash uchun global hamkorlikning muhimligini alohida ta’kidlashga qaratilgan.

Koronavirus kuchaygan qaltis davrda o‘tkazilgan mazkur onlayn forum yakunlari bo‘yicha qabul qilingan rezolyutsiya BMT Bosh Assambleyasi 74-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida taqdim etildi. Ushbu hujjat BMTning 6 ta rasmiy tili — arab, ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillariga tarjima qilindi va keng tarqatildi.

Inson huquqlari bo‘yicha III Samarqand forumi: 2022-yil 5-6-dekabr

Inson huquqlari bo‘yicha uchinchi Samarqand forumi “Inson huquqlari sohasida ta’lim” mavzusida bo‘lib o‘tdi. Ushbu Global forumni o‘tkazish tashabbusi O‘zbekiston Prezidenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi va BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida ilgari surilgandi.

Global forum Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyaning 11 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarning dastlabkisi bo‘ldi. Ko‘plab nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari Samarqand forumi ishtirokchilariga samimiy qutlovlar bilan murojaat qildi va xalqaro anjumanda faollik ko‘rsatdi.

Xalqaro hamjamiyat Prezidentimizning inson qadri, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash sohasida yuritayotgan siyosati hamda tashabbuslarini yuksak baholamoqda. Global forum ishtirokchilarining birlamchi va eng asosiy xulosasi shu.

Ishtirokchilar tomonidan keyingi yillarda yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish, inson huquqlari sohasidagi ta’limni takomillashtirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish sohalarida keng qamrovli ishlar qilingani e’tirof etildi.

Eng muhimi, Samarqand global forumi, bir tomondan, bashariyat tarixida ilk bor insonning asosiy huquqlarini himoya qilish zarurligini e’lon qilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligini nishonlashga qaratilgan “Qadr-qimmat, erkinlik va adolat — hamma uchun” kampaniyasini boshlab berdi. Shu bilan birga, Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyaning 11 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarning dastlabkisi bo‘ldi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida qayd etilganidek, “Ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog‘i lozim. Ta’lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o‘rtasida birbirini tushunish, xayrixohlik va do‘stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak”.

Shu nuqtayi nazardan, global forum ishtirokchilari tomonidan inson huquqlari sohasidagi ta’limning quyidagi uchta jihati alohida ta’kidlandi:

birinchisi, barcha odam inson huquqlari o‘zi nima ekani, bu huquqlar qanday kafolatlanishi yoki ta’minlanishi haqida yetarlicha bilim olishi lozim;

ikkinchisi, inson huquqlari sohasidagi ta’lim inson huquqlariga oid qadriyatlarga mos va muvofiq holda amalga oshirilishi hamda bu sohadagi ta’limning nafaqat jarayoni, balki mazmun-mohiyati ham juda muhimligiga jiddiy e’tibor qaratish kerak;

uchinchisi, inson huquqlari talablaridan kelib chiqqan holda inson huquqlari sohasida ta’lim berish, o‘z navbatida, o‘qiyotgan shaxslarga inson huquqlariga oid qadriyatlarni o‘z hayotida qo‘llash, shuningdek, inson huquqlarini mustaqil yoki jamoatchilik bilan birga rag‘batlantirish va himoya qilish uchun juda qo‘l kelishini unutmaslik zarur.

Forum yakunida Markaziy Osiyoda inson huquqlari sohasida ta’limni amalga oshirish bo‘yicha Samarqand Harakatlar rejasi qabul qilindi. U, global forum ishtirokchilarining fikricha, Inson huquqlari sohasidagi jahon ta’lim dasturini amalga oshirishga qo‘shilgan katta hissa bo‘ldi. Binobarin, jahon ta’lim dasturining o‘zi Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldiruvchi global harakatlar rejasi deganidir.



> **Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumining kelib chiqish tarixi uning tashabbuskori shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ekanini yaqqol tasdiqlab turibdi. Ayni shu muhim tashabbus asosida yangi O‘zbekistonda inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumlarini o‘tkazish izchil, xayrli va samarador an’anaga aylangani har qancha tahsinga sazovor.**

Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi: 2024-yil 13-14-iyun

Inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi Samarqand forumi “Ekologik muammolar: o‘zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagi, barqaror yechimlar topish” mavzusiga bag‘ishlab o‘tkazildi. Forum sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz — iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaygan keskin ekologik vaziyatda bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz Inson huquqlari bo‘yicha IV an’anaviy Samarqand forumi ishtirokchilariga murojaatida ta’kidlaganidek, “Ekologik inqiroz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi eng asosiy to‘siq va tahdidga aylandi, global miqyosda qashshoqlik bilan bog‘liq muammolar ko‘paymoqda, insonning sog‘liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash xavf ostida qolmoqda. Bundan, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, ayollar va bolalar jiddiy aziyat chekmoqda”.

Inson huquqlari bo‘yicha IV an’anaviy Samarqand forumi davomida jahon amaliyotida o‘ziga xos o‘rin egallab ulgurgan “Samarqand ruhi” yana bir bor o‘zini baralla namoyon etdi. Forumning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi:

birinchidan, an’anaviy Samarqand forumi BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha sa’y-harakatlar butun jahonda davom etayotganining yana bir amaliy isboti bo‘ldi;

ikkinchidan, Samarqand forumida BMT va tuzilmalari hamda boshqa xalqaro tashkilotlardan nufuzli vakillar ishtirok etgani, shubhasiz, ayni yo‘nalishda global hamkorlik muhimligi e’tirof etilayotganining yorqin ifodasiga aylandi;

uchinchidan, forumda iqlim o‘zgarishining inson huquqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha turfa tamoyil va yondashuvlar, shuningdek, bu sohada turli mamlakatlardagi ilg‘or tajriba va amaliyotlar bilan o‘zaro almashinish asosida aniq tavsiya va yechimlar ishlab chiqishga e’tibor qaratildi.

Bunday yondashuv O‘zbekiston Prezidentining “Parij bitimida ta’kidlanganidek, iqlim o‘zgarishiga qarshi choralar ko‘rilayotganida, davlatlar inson huquqlarini hurmat qilishi, rag‘batlantirishi va himoya qilishi, asosiy diqqat-e’tiborini mazkur sohadagi majburiyatlarini bajarishga qaratishlari lozim”, degan fikrlari bilan uyg‘un va hamohangdir.

Aslida, global muammolarga samarali yechim topishda o‘zaro jam bo‘lib va barcha bosqichdagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirgan holda ish tutish juda muhim. Shu bois, to‘rtinchi Samarqand forumida ekologiya muammolarining inson huquqlariga ta’sirini o‘rganish va ushbu salbiy holatlarga barham berish uchun global ko‘lamda maqbul yechimlar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Forum yakunida “Iqlim o‘zgarishlari sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak yo‘lidagi majburiyatlar va sa’y-harakatlar to‘g‘risidagi Samarqand deklaratsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi. Ishtirokchilar ushbu loyihani O‘zbekiston Prezidenti murojaatida ilgari surilgan tashabbus va tavsiyalar hamda forum davomida kelib tushgan 150 dan ortiq amaliy taklif asosida maromiga yetkazilgan holda qabul qilish uchun ovoz berdi.

Forumning ikkinchi kuni ishtirokchilar tomonidan Samarqand zaminida “Inson huquqlari bog‘i” barpo etib, g‘amxo‘rlikka muhtoj sayyoramiz bag‘rida yangi va mo‘jaz bir boqqa asos soldilar. Bu sa’y-harakat zamirida ham o‘ziga xos ramziy mazmun mujassam.

Inson huquqlari bo‘yicha V Samarqand forumi: 2026-yil 28-29-sentabr

Ayni vaqtda “Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro paktlarga 60 yil va Rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga 40 yil: qadr-qimmat, tenglik va barqaror rivojlanish yo‘lidagi global sheriklik” mavzusida o‘tkaziladigan beshinchi xalqaro forumga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Inson huquqlari bo‘yicha V Samarqand forumi O‘zbekiston Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni doirasida tashkil etilmoqda.

Bo‘lajak forum BMTning 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan ikkita asosiy hujjati — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 60 yilligiga, Rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning 40 yilligiga, shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yilligiga bag‘ishlanadi.

Forumning yuqori darajadagi yalpi yig‘ilishlarida, xususan:

inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimining olti o‘n yillikdan keyingi transformatsiyasi: erishilgan natijalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari;

zamonaviy global tahdidlar sharoitida barcha inson huquqlarining universalligi, bo‘linmasligi, o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi;

inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimi kelajagi: xalqaro paktlarning olti o‘n yillikdan keyingi ijrosi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro arxitekturani mustahkamlash istiqbollari;

rivojlanish huquqi — universal inson huquqi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va global tengsizlikni qisqartirishning muhim omili;

global hamjihatlik va xalqaro hamkorlik zamonaviy tahdidlarga, jumladan, raqamli transformatsiya, iqlim o‘zgarishi, mojarolar va gumanitar inqirozlarga samarali javob berish asosi;

urushda insoniylik: zamonaviy qurolli mojarolar sharoitida xalqaro huquq oldidagi tahdidlar kabi dolzarb, umumbashariy va inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro huquqqa bevosita aloqador mavzular muhokama etilishi mo‘ljallangan.

Inson huquqlari bo‘yicha V Samarqand forumi doirasida, shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yilligiga bag‘ishlanadigan yubiley yig‘ilishi ham o‘tkazilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, “Capstone Project Uzbekistan” inson huquqlari bo‘yicha ta’lim dasturi g‘oliblarini taqdirlash marosimini tashkil etish rejalashtirilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumining kelib chiqish tarixi uning tashabbuskori shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ekanini yaqqol tasdiqlab turibdi. Ayni shu muhim tashabbus asosida yangi O‘zbekistonda inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumlarini o‘tkazish izchil, xayrli va samarador an’anaga aylangani har qancha tahsinga sazovor.

Iqtidorli yoshlar — mamlakat kelajagi



SEULDAN UFURGAN VATAN NAFASI



Marjona QIYOMOVA,
Yonse universiteti magistranti,
Yoshlar parlamenti a’zosi

Prezidentimizning yaqinda Koreya Respublikasiga davlat tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi strategik hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish barobarida u yerda tahsil olayotgan va turli sohalarda faoliyat yuritayotgan o‘zbekistonlik vatandoshlar hayotida ham muhim tarixiy voqea sifatida muhrlandi. Chunki mazkur tashrif doirasida Koreya Respublikasida istiqomat qilayotgan o‘zbekistonlik vatandoshlar bilan uchrashuv o‘tkazilgani alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Men ham ushbu tarixiy uchrashuvda Koreyada tahsil olayotgan magistrant sifatida ishtirok etish, davlatimiz rahbari bilan bevosita suhbatlashish hamda o‘z fikr va takliflarimni yetkazish imkoniga ega bo‘ldim.

Davlatimiz rahbari o‘ta zich kun tartibiga qaramay, biz bilan ochiq va samimiy muloqot qildi. Suhbat davomida mamlakatimizdagi islohotlarning asosiy maqsadi, O‘zbekiston — Koreya hamkorligida erishilayotgan natijalar va yangi istiqbollar haqida so‘z yuritildi. Shuningdek, vatandoshlarning taklif va tashabbuslari tinglandi.

Bugun Koreya Respublikasida 110 mingga yaqin O‘zbekiston fuqarosi istiqomat qilmoqda. Ularning 20 mingga yaqini talaba yoshlar bo‘lib, shundan qariyb 3500 nafari magistratura va doktorantura bosqichida tahsil olmoqda.

Uchrashuvda xorijda bilim va tajriba orttirayotgan yoshlarning O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni alohida ta’kidlandi. Davlatimiz rahbari yoshlarni vaqtni qadrlash, ko‘proq bilim olish va orttirgan tajribasini Vatan ravnaqi yo‘lida sarflashga chaqirdi. Prezidentimizning “Bir daqiqa ham vaqtingizni bekorga o‘tkazmanglar. 5 yil o‘tadi, 10-15 yil o‘tadi. Kim boshqaradi O‘zbekistonni? Sizlar. To‘g‘ri, sog‘inch qiynaydi. Vatan sog‘inchi alamida ko‘proq ilm olinglar, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilinglar”, degan so‘zlari bizga katta kuch berdi.

Seulda joylashgan Yonse universitetida biotibbiyot muhandisligi yo‘nalishida magistratura bosqichida tahsil olayotganim men uchun katta imkoniyat va mas’uliyatdir. 2025-yili Janubiy Koreyada tashkil etilgan “Dr. Lee Jong-wook Fellowship” dasturining 100 foizli grant stipendiyasi sohibi bo‘lganman. Hozir esa tibbiyotda nanotexnologiyalar yo‘nalishida ilmiy tadqiqot faoliyati bilan mashg‘ulman.

Shu sababli ushbu tarixiy uchrashuvda o‘z ilmiy faoliyatim va sohamdan kelib chiqib, O‘zbekistonda ilk marotaba to‘liq moliyalashtiriladigan “Milliy biotibbiyot muhandislari dasturi”ni yo‘lga qo‘yish tashabbusini ilgari surdim. Mazkur dastur orqali yoshlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashi, ta’lim sifatini oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish hamda biotibbiyot muhandisligi kabi istiqbolli sohalarda malakali mutaxassislar safini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutiladi.

Taklifimni davlatimiz rahbari ochiq va samimiy qabul qildi. Tashabbus mas’ul vazirliklar tomonidan ko‘rib chiqilishi va bu masalaga aniqlik kiritilishi ta’kidlandi. Bu suhbat yosh tadqiqotchi sifatida zimmamga katta mas’uliyat yukladi. Chunki xorijda olayotgan bilimim va tajribamning eng katta qiymati uni kelgusida O‘zbekiston taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan belgilanadi.

Uchrashuv Koreyadagi vatandoshlarimiz uchun ochiq muloqot, fikr almashish va yangi tashabbuslarni ilgari surish imkonini berdi. Eng muhimi, xorijda tahsil olayotgan, mehnat qilayotgan yoshlarning bilimi va salohiyatiga ishonch yana bir bor namoyon bo‘ldi. Bugun yosh tadqiqotchi, biotibbiyot muhandisi va xorijda tahsil olayotgan vatandosh sifatida dadil ayta olamanki, yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va davlatimiz rahbari bildirayotgan ishonch bizni yanada ko‘p izlanish, ilm olish va mas’uliyatni chuqur his qilishga undaydi.

Mamlakatimiz rahbari yuritayotgan pragmatik va uzoqni ko‘zlagan siyosat O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash bilan birga xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Koreya bilan rivojlanayotgan strategik hamkorlik esa ta’lim, fan, texnologiya va inson kapitali uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Seuldagi uchrashuv ana shu siyosatning amaliy va xalqchil ifodasi bo‘ldi.

2026-yil 26-sentabr, 200-son

Bu yil Prezidentimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha e’lon qilingan “favqulodda holat” shunchaki siyosiy chaqiriq emas, balki har bir rahbar va mansabdordan real natija, har bir fuqaro uchun esa korrupsiyaga murosasiz munosabat, huquqini bilish va qonunbuzarlikka befarq bo‘lmaslikka da’vat bo‘ldi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news





KORRUPSIYAGA QARSHI ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLARGA SODIQMIZ

Halollik vaksinasi



Akmal BURHONOV, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori

Boshlanishi 1-betda

Korrupsiyaga qarshi kurashda tub burilish va dastlabki qadamlar

Hozirga qadar sohada 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Davlat siyosatini har ikki yillik davlat dasturlari asosida amalga oshirish mexanizmi joriy etildi. O‘tgan davrda Prezidentimizning farmoni bilan 5 ta davlat dasturi tasdiqlanib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasining ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘z ifodasini topishi esa bu siyosatning huquqiy maqomi yanada yuksalganini ko‘rsatdi. Ya’ni korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat ijro hokimiyatining siyosiy mas’uliyati, balki konstitutsiyaviy qadriyat va davlat boshqaruvining muhim prinsiplaridan biri sifatida mustahkamlandi.

Bu jarayonda parlament nazoratining kuchaytirilishi ham katta ahamiyatga ega. Har yili Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzaning Oliy Majlis palatalariga taqdim etilishi davlatning korrupsiyaga qarshi siyosati ustidan parlament nazoratini kuchaytirishning muhim mexanizmlaridan biriga aylandi. Xususan, bu yil O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha beshinchi milliy ma’ruza deputat va senatorlar bilan muhokama qilinib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etildi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishning milliy darajadagi siyosatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash, joylarda esa hududiy kengashlar tashkil etildi. Bu orqali mamlakat miqyosida yagona aksilkorrupsiya siyosatini muvofiqlashtirish bilan bir qatorda har bir hududdagi korrupsiyaviy xavf va muammolarni joyida aniqlash va tizimli hal etish mexanizmi shakllantirildi.

Byurokratiyani qisqartirish va davlat boshqaruvini ixchamlashtirish aksilkorrupsiya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ma’muriy islohotlar natijasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 tagacha, vazirliklar soni esa 25 tadan 21 tagacha qisqartirildi. Ijro etuvchi hokimiyat organlaridagi shtat birliklarini 30 foizgacha maqbullashtirish va mehnatga haq to‘lashning adolatli tizimi joriy etila boshladi.

Byurokratiyani kamaytirishda eng katta o‘zgarishlardan biri fuqaroning yelkasidagi ortiqcha yukning olib tashlanishi bo‘ldi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan 450 dan ortiq qonun hujjatida nazarda tutilgan 18 turdagi ma’lumot va hujjatni aholi hamda tadbirkorlardan talab qilish tartibi bekor qilindi. Bu ma’lumotlarni vakolatli davlat organi tomonidan “Elektron hukumat” platformasi orqali olish tartibi joriy etildi.

Davlat xizmatida qaror va xizmat mansabdorning ixtiyoriga emas, aniq tartib va shaffof jarayonga asoslanishiga, ya’ni raqamlashtirish orqali inson omilini qisqartirishga alohida e’tibor qaratildi. Bugun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 800 dan ortiq, davlat xizmatlari markazlari orqali esa 500 dan ziyod xizmat inson omilisiz ko‘rsatilayotgani ana shu islohotlarning amaliy natijasidir. Buning eng katta ahamiyati shundaki, fuqaroning ishini hal qilishda tanish-bilishchilik, iltimos yoki ortiqcha muloqot emas, belgilangan qoida va shaffof tizim hal qiluvchi omilga aylandi.

Korrupsiyaviy xavf yuqori bo‘lgan sohalarda “Korrupsiyasiz soha” va “Korrupsiyasiz hudud” loyihalari amalga oshirildi. Kapital qurilish, oliy ta’lim, sog‘liqni saqlash va davlat xaridlari kabi korrupsiyaviy xavflar yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda bu loyihalar orqali muammoni oqibat bilan emas, uning sabab va shart-sharoitlari bilan birga hal qilish choralari ko‘rildi.

Sohalarda ortiqcha byurokratik to‘siqlar bartaraf etildi. Budjet mablag‘idan foydalanish ustidan nazorat kuchaytirildi. Zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etildi. Masalan, qurilish sohasida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi ishga tushirildi. Sog‘liqni saqlash sohasida esa imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga kvota asosida order berish jarayoni to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi.

Davlat xaridlarida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida yangi tahrirdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xaridlarini majburiy elektron shaklda o‘tkazish tartibi joriy etildi. Qonunchilik talablarini buzganlik uchun esa ma’muriy javobgarlik ham belgilandi.

Muhim o‘zgarishlardan aniq natijalarga

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari mustahkamlanib, davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha aniq mexanizmlar qo‘llandi. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, baholash va bartaraf etish tartiblari qonun bilan belgilab qo‘yildi. Bu orqali davlat va jamoat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar ta’siridan himoya qilishning ta’sirchan huquqiy asosi yaratildi. Qonunchilik talablarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanib, davlat xizmatida shaxsiy manfaat emas, jamiyat manfaati ustuvor bo‘lishi qonun bilan kafolatlandi.

Davlat fuqarolik xizmatini professionallashtirish va korrupsiyaga toqatsiz muhitni shakllantirish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun bilan davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi, majburiyatlari, cheklovlar va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan talablar aniq belgilab berildi. Eng muhimi, davlat xizmatiga ishga qabul qilishda ochiq tanlov tamoyili joriy etildi. Tanlov sinovlarining internet orqali real vaqt rejimida namoyish etib borilishi esa jarayonning shaffofligini kuchaytirdi.

Davlat xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish bilan birga korrupsiyaga nisbatan murosasiz davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish asosiy vazifalardan biriga aylandi. Buning uchun davlat xizmatchilarini majburiy o‘qitish va har uch yilda malakasini oshirish tizimi joriy etildi. Rahbar kadrlarning korrupsiyaga qarshi barqarorligini baholash, kadrlar rotatsiyasini kengaytirish va xizmat safarlarini raqamlashtirish kabi mexanizmlar yo‘lga qo‘yildi.

Natijalar ham e’tiborga molik: 2025-yilda 381 nafar davlat xizmatchisining korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasi baholandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash huzuridagi komissiya rahbarlik lavozimlariga 180 nomzodni suhbatdan o‘tkazdi. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)” maqomiga ega 33 hududda kadrlar rotatsiyasi tizimi tashkil etildi.

Korrupsiyaning oldini olishda muhim o‘zgarishlardan biri davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat va komplayens tizimining shakllantirilganidir. Bu orqali korrupsiyaga qarshi siyosatni yagona standartlar asosida amalga oshirish va korrupsiyaviy xavflarni sodir bo‘lishidan oldin aniqlash imkoniyati yaratildi. Bugun mamlakatimizdagi 196 ta davlat organi va tashkilotida 1680 dan ortiq mutaxassis korrupsiyaning oldini olish va ichki nazorat bilan shug‘ullanmoqda. Mazkur tizimning samarasi raqamlarda ham yaqqol ko‘rinadi: birgina 2025-yilda 5500 ga yaqin korrupsiyaviy omil aniqlanib, 794,8 milliard so‘mlik byudjet mablag‘i maqsadsiz sarflanishining oldi olindi.



Korrupsiya, eng avvalo, yopiq eshiklar ortida, jamoatchilikdan yashirilgan qarorlar va nazoratsiz jarayonlarda ildiz otadi. Shu bois, mamlakatimizda ochiqlikka oid qonunchilik xalqaro standartlar asosida kuchaytirildi. Davlat organlari va tashkilotlarining Ochiqlik indeksi joriy etildi. Davlat organlari majburiy tarzda e’lon qilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik 42 turdagi ma’lumot belgilandi. Ularning qachon, qayerda va qanday shaklda e’lon qilinishi ham aniq tartibga solindi. Talablarni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanishi esa ochiqlikni ta’minlashni majburiy asosga aylantirdi.

Bundan tashqari, davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyatini reyting asosida baholash tizimi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish bilan cheklanmay, davlat organlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirib, rahbarlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirmoqda.

> **“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiya hayotga tatbiq etiladi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va samarali amalga oshirish mexanizmlari qamrab olinadi.**

Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish mexanizmi ishlab chiqildi. “Halollik vaksinasi” bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, BMTning Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturi O‘zbekistonda keng tatbiq etila boshladi.

“Korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida qonunchilik hujjatlari va loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish tizimi joriy etildi. Bu jarayon faqat davlat organlari doirasida qolib ketmadi. Ilmiy tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va mustaqil ekspertlarga ham qonunchilik hujjatlari va loyihalarini korrupsiyaga qarshi ilmiy hamda mustaqil ekspertizadan o‘tkazish huquqi berildi.

Jamoatchilik nazorati — eng ta’sirchan kuch

Qonunlar qanchalik kuchli, jazo nechog‘liq qat’iy bo‘lmasin, jamiyatning o‘zi korrupsiyaga qarshi turmasa, hech bir islohot to‘liq samara bermaydi. Chunki korrupsiyani jilovlaydigan eng ta’sirchan kuch — jamoatchilik nazorati, fuqaroning huquqiy ongi va adolatga ichki talabidir. Bu borada jamiyatimizda ham o‘zgarishlar yuz berdi va bu fuqarolik jamiyatining faollashuvida isbotini topdi. Taqqoslab ko‘raylik: 2020-yilda korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishida birorta ham NNT bo‘lmagan. Bugun ularning soni 10 dan oshdi. To‘g‘ri, bu hali maqtangulik natija emas, ammo ular aksilkorrupsiya islohotlarining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Mana bir misol: NNT vakillari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 24 foizini, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi jamoatchilik kengashining 52 foizini, hududiy kengashlar a’zolarining esa 40 foizini tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining eng ta’sirchan vositalaridan biriga aylanmoqda. Avvallari matbuotda korrupsiya mavzusi ochiq va keskin muhokama qilinmaganini yaxshi bilamiz. Bugun esa jurnalistika qonunbuzarliklarni ochiq ko‘tarib chiqyapti. Mansabdorlardan javob talab qilyapti va jamoatchilikka hisobdorlikni kuchaytiryapti. Jurnalistik surishtiruvlar ko‘p hollarda muammoni birinchi ko‘rsatib, mas’ullarni xalq oldida javob berishga undamoqda. Shu ma’noda, jamoatchilik ham endi tomoshabin emas. Odamlar befarq qarashdan voz kechib, korrupsiyaga nisbatan munosabatini ochiq bildirmoqda. Bu jamiyatdagi eng muhim o‘zgarishlardan biri.

O‘zbekiston 2021-yilda Xalqaro ochiq ma’lumotlar xartiyasiga a’zo bo‘ldi. Mamlakatimiz Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlari, boshqa ko‘plab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda. G‘arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog‘ining kotibiyati vazifasini bajarmoqda. Har yili Toshkentda an’anaviy xalqaro aksilkorrupsiya forumi o‘tkazib kelinmoqda. “Transparency International” indeksida so‘nggi o‘n yilda mamlakatimiz 37 pog‘ona yuqoriladi. 2030-yilga qadar mazkur reytingdagi o‘rnimizni yana 50 pog‘ona yaxshilash maqsadini ko‘zlaganmiz. “Open Data Inventory” reytingida esa O‘zbekiston 198 mamlakat orasida 12-o‘ringa ko‘tarilib, Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni saqlab kelmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz korrupsiyaga qarshi kurashdagi mintaqaviy va global tashabbuslar, yangi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularda ishtirok etishda alohida faollik ko‘rsatib kelmoqda. Bu borada Toshkentda ishga tushirilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining mintaqaviy platformasidan keng foydalanilmoqda.

Islohotlarning yangi bosqichi

2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining Prezidentimiz ishtirokida o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish umummilliy vazifa sifatida yanada yangi bosqichga ko‘tarildi hamda aniq, amaliy choralar ko‘rildi. Xususan, maishiy korrupsiyani jilovlashga alohida e’tibor qaratildi. Chunki korrupsiyaga qarshi kurashning haqiqiy natijasi oddiy fuqaroning davlat idorasiga kirganda korrupsiyaga duch kelmasligida namoyon bo‘ladi. Shu maqsadda ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, bank yoki kadastr sohalarida respublikadagi 2450 ta obyektda korrupsiya va byurokratiyaning asl sabablari joyiga chiqqan holda o‘rganildi. Natijalar 8 ta hudud va 2 ta vazirlik kesimida muhokama qilinib, kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan 148 mansabdorga ta’sir choralari ko‘rildi. 37 ta tuman va shaharda korrupsiyadan xoli hudud yaratish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Eng muhimi, muammoga bir xil qolipda emas, hududning o‘ziga xos sharoitidan kelib chiqib yechim izlanmoqda.

Maishiy korrupsiyaning oldini olishda “Andijon tajribasi”, fuqarolik jamiyati faolligini oshirishda “Navoiy tajribasi”, raqamlashtirishda esa “Samarqand tajribasi” shakllantirilib, boshqa hududlarga tatbiq etilmoqda. “Raqamli bozor” dasturi doirasida mamlakatimizdagi 281 ta bozor va 132 ta avtoturargoh raqamlashtirildi. Natijada o‘rtacha oylik tushum 13,4 milliard so‘mga, soliq tushumlari esa 2,8 milliard so‘mga oshdi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta’lim, kadastr va qurilish tizimlarida xodimlarni hrm.argos.uz orqali tanlov asosida ishga qabul qilish amaliyoti joriy etildi. Vazirliklarda “situatsion markaz”lar tashkil etilib, budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat kuchaytirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bilim va tarbiyadan boshlanadi. Shu maqsadda aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy bilimini muntazam oshirish uchun “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” ishga tushirilib, 250 ta masofaviy o‘quv kursi yo‘lga qo‘yildi. Birgina 2025-yilda vazirlik va idoralarning 57 ming 620 xodimi malaka oshirdi. Platformaning yoshlar uchun maxsus dasturlari orqali esa 1,037 million maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchisi, 3,146 million maktab o‘quvchisi va 219 ming talaba korrupsiyaga qarshi bilimlar bilan qamrab olindi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xaridlarni qisqartirish, raqobatli usullarni kengaytirish va xarid jarayonini ochiqlashtirish bo‘yicha yangi tartiblar joriy etildi. Xususan, to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida xarid qilinadigan tovarlar ro‘yxati bekor qilinib, ularni ham raqobatli usullarda xarid qilish belgilandi. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri to‘liq raqamlashtirilib, davlat xaridlarini korporativ bank kartalari orqali amalga oshirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Natija uzoq kuttirmadi: amalga oshirilgan choralar ta’sirida davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilishlar bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarliklar soni kamayish tendensiyasiga o‘tdi. Xususan, 2025-yil 1123 ta ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilib, o‘tgan yilga (2024-yil 1374 ta) nisbatan 251 taga yoki 18 foizga kamaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari islohotlar rivojining mazkur bosqichida ham e’tibor markazida bo‘ldi. Prezidentimiz qarori bilan nodavlat notijorat tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi loyihalariga har yili 10 milliard so‘m miqdorida grant va ijtimoiy buyurtmalar beriladigan bo‘ldi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarni faol jalb etgan holda o‘zaro tajriba almashish va muloqotlarni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari bo‘yicha mintaqaviy tadqiqot markazi tashkil etildi.

Investitsiya loyihalari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish uchun mahalliy aholi orasidan tashabbuskor guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda ular bilan birga loyihalar amalga oshirilayotgan mahallalar hududida dolzarb muammolarni aniqlash tizimi joriy etildi. Bu yondashuvning ahamiyati shundaki, byudjet mablag‘larini tejash endi shunchaki iqtisod qilingan mablag‘ sifatida qolib ketmayapti. U yana xalq ehtiyojiga xizmat qilmoqda.

Jumladan, “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi bo‘yicha birgina Andijon viloyatida 42 milliard so‘m iqtisod qilindi. Tejalgan 42 milliard so‘m viloyatning 5 ta tumanida 4 ta maktab, 300 o‘rinli 3 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 120 o‘rinli 2 ta oilaviy shifokorlik punkti, 90 kilometr elektr energiyasi, 2 kilometr ichimlik suv tarmog‘i, 6 kilometr ichki yo‘l va 14 kilometr piyodalar yo‘lini qurish (ta’mirlash) uchun yo‘naltirildi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ishtiroki o‘tgan yili yanada faollashdi. Mamlakatimiz MDH doirasidagi Korrupsiyaga qarshi davlatlararo kengashga qo‘shildi. Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy korrupsiyaga qarshi tashabbusining to‘laqonli a’zosi bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi doirasida muhim rezolyutsiyalarni ilgari surishda faol ishtirok etdi.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati O‘zbekistondagi islohotlarni xalqaro mezonlar asosida baholash va ularni takomillashtirishga xizmat qilayotganidadir. Jumladan, Transparency International bilan hamkorlikda milliy halollik tizimi baholanib, korrupsiyaga qarshi ekotizimni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu esa milliy aksilkorrupsiya siyosatining ochiqligi va xalqaro standartlarga uyg‘unligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mas’uliyat, maqsad va yangi vazifalar

Bu yil Prezidentimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha e’lon qilingan “favqulodda holat” shunchaki siyosiy chaqiriq emas, balki har bir rahbar va mansabdordan real natija, har bir fuqaro uchun esa korrupsiyaga murosasiz munosabat, huquqini bilish va qonunbuzarlikka befarq bo‘lmaslikka da’vat bo‘ldi. Shu bois, Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslarni hayotga tatbiq etish va aksilkorrupsiya siyosatini yanada kuchaytirish bo‘yicha yangi mexanizmlar ustida izchil ishlanmoqda.

Eng avvalo, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiya hayotga tatbiq etiladi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va samarali amalga oshirish mexanizmlari qamrab olinadi.

Rejalardan yana biri davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etishdir. Mazkur tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini aniq mezonlar asosida baholash va sertifikatlash imkonini beradi. Kelgusida ushbu sertifikat xalqaro ISO 37001 standartining milliy muqobili sifatida xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Biroq standart va sertifikatning o‘zi yakuniy maqsad emas. Asosiy maqsad — tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi yondashuvni qog‘ozdagi talabdan kundalik boshqaruv amaliyotiga aylantirish. Ya’ni korrupsiyaga qarshi tizim borligi emas, u haqiqatan ishlayotgani va natija berayotgani muhim. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus idoralar, davlat organlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlarining sa’y-harakatini bir nuqtada birlashtiradigan yaxlit klaster tizimini shakllantirish maqsad qilingan.

Raqamlashtirish barcha sohani qamrab olayotgan bugungi sharoitda korrupsiyaviy xavflarni raqamli texnologiyalar orqali aniqlash, tahlil qilish va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish borasida ham jiddiy vazifalar turibdi. Shu maqsadda “Raqamli komplayens” axborot dasturiy kompleksini ishga tushirish, sohalar hamda hududlar kesimida korrupsiyaviy xavflar xaritasini shakllantirish ko‘zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini yanada kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari xodimlari uchun yagona kasbiy standartlarni joriy etish ham ustuvor vazifalardan.

Bu yil qonunchilik tizimida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichini belgilab beruvchi muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Avvalo, korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirilib, jazoning muqarrarligi prinsipi mustahkamlandi. Ayniqsa, yuqori ijtimoiy xavfga ega korrupsiyaviy jinoyatlar uchun muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish kabi institutlarni qo‘llash cheklandi.

Shu bilan birga, korrupsiyaning oldini olishda muhim o‘rin tutadigan komplayens xodimlarining mustaqilligi va xavfsizligi huquqiy jihatdan kafolatlandi. Yana bir muhim yangilik — hukumat a’zoligi va hokimlik lavozimiga tayinlanayotgan nomzodlardan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq rejasini ham taqdim etish talab etilmoqda.

Shu kabi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish, davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini takomillashtirish, davlat xaridlaridagi qonunbuzilishlar uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining qonuniy talablarini bajarmaslik uchun javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihalarini parlamentga kiritish rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimiz korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida dunyodagi eng nufuzli tadbirlardan biriga mezbonlik qilishdek muhim tarixiy voqea bo‘sag‘asida turibdi. Ya’ni aksilkorrupsiya sohasidagi islohotlarimizga xalqaro hamjamiyat bildirayotgan ishonchning yana bir muhim ifodasi sifatida 2027-yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ishtirokchi davlatlarining 12-konferensiyasi O‘zbekistonda o‘tkaziladi.

Bu kabi yuksak yutuqlar aslida har birimiz uchun katta mas’uliyat. Chunki korrupsiyaga qarshi kurashishda erishilgan har bir natija — keyingi qadam uchun yangi majburiyat, yangi talab va yangi mezondir. Mamlakatimiz, Prezidentimiz va xalqimiz esa o‘z oldiga ulkan maqsad qo‘ygan: korrupsiyaga qarshi kurashadigan davlatdan korrupsiyaga imkon bermaydigan jamiyatga aylanish. Shubhasiz, bu maqsadga halollikni qadrlaydigan davlat, qonunlarga ishonadigan jamiyat va korrupsiyaga “yo‘q” deyishni o‘zining oddiy hayotiy me’yoriga aylantirgan xalq birga erishadi. Bugun biz mana shu muhim bosqichlarni bosib o‘tyapmiz. Endi eng ustuvor vazifa — uni ortga qaytmaydigan yo‘lga aylantirish.



MILLIY YUKSALISH MA’NAVIYATDAN BOSHLANADI



Kamoliddin TO‘RAYEV,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bugun dunyo misli ko‘rilmagan tezlikda o‘zgarmoqda. Sun’iy intellekt inson bajaradigan ko‘plab vazifalarni zimmasiga olmoqda, raqamli texnologiyalar masofa va vaqt tushunchasini o‘zgartirmoqda, global axborot oqimi esa turli madaniyat, g‘oya va qadriyatlarni bir makonda to‘qnashtirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar, ekologik muammolar, axborot bosimi, individualizm kuchayishi va an’anaviy ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasi sharoitida bir haqiqat tobora ravshanlashmoqda: mamlakat taraqqiyotini faqat iqtisodiy raqamlar bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Zamonaviy shaharni qisqa muddatda qurish mumkin. Yangi zavodni ham, raqamli platformani ham yaratsa bo‘ladi. Lekin bilimli, mas’uliyatli, qonunga hurmat bilan qaraydigan, milliy o‘zligini anglagan, tabiat va jamiyat taqdiriga daxldor insonni bir kunda shakllantirib bo‘lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning mustaqilligimizning o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Kelgusi o‘n yillik — biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi”, degan konseptual fikri alohida ahamiyat kasb etadi. Nutqda mazkur yuksalish davri falsafasi xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi bilan bog‘lanib, inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur belgilandi.

Bu yetti dasturni faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy siyosat yo‘nalishlari sifatida emas, ma’naviy jarayonlar nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish mumkin. Bunday yondashuvda ularning ortida o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan yettita ma’naviy tayanch ko‘rinadi: bilim — ma’rifiy kapital, salomatlik — inson qadri va o‘ziga mas’uliyat, texnologik taraqqiyot — innovatsion tafakkur, ekologiya — ekologik madaniyat, qonun ustuvorligi — huquqiy ma’naviyat, mahalla — ijtimoiy hamjihatlik, bag‘rikenglik — milliy birdamlik.

Inson kapitali: bilim, salomatlik va yangi tafakkur

Milliy yuksalish markazida inson turadi. Yangi O‘zbekiston islohotlarida ilgari surilgan “Inson qadri uchun!” tamoyilini faqat ijtimoiy himoya yoki aholiga xizmat ko‘rsatish bilan cheklab tushunish yetarli emas. Inson qadri shaxsga tayyor imtiyoz berish emas, imkoniyatini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratishdir. Bu insonni davlat siyosatining passiv obyektidan taraqqiyotning faol subyektiga aylantirishni taqozo qiladi.

Bunda birinchi hal qiluvchi omil — bilim. Prezidentimiz ma’ruzasida bilim va malakani kelgusi taraqqiyotning asosiy kapitaliga aylantirish birinchi milliy dasturning mazmuni sifatida belgilangan. Ta’limning barcha bosqichlarini sifat jihatidan o‘zgartirish, kasbiy ta’limni kuchaytirish va universitetlarni xalqaro raqobat maydoniga olib chiqish kabi vazifalar shunga xizmat qiladi. “Ma’rifiy kapital” degan tushuncha alohida ahamiyatga ega. Ma’rifiy kapital —

faqat oliy ma’lumotlilar soni emas. U bilim, malaka, mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, yangilik yaratish, o‘rganishni davom ettirish va o‘z bilimini jamiyat manfaatiga yo‘naltira olish qobiliyatining birligidir. Oddiy bir misol: ikki yosh bir xil smartfon, bir xil internet va bir xil sun’iy intellekt platformasidan foydalanishi mumkin. Birinchi yosh uni faqat ko‘ngilochar kontent uchun ishlatadi. Ikkinchisi xorijiy til o‘rganadi, dasturlashni o‘zlashtiradi, ilmiy ma’lumot izlaydi, yangi mahsulot yaratishga harakat qiladi. Texnologiya ikkalasida ham bir xil. Farq — tafakkurda. Demak, raqamli imkoniyatning o‘zi taraqqiyot kafolati emas. Uni qanday maqsadda ishlatadigan inson borligi hal qiluvchi masaladir.

Ikkinchi muhim masala — salomatlik. Inson qadri haqida gapirib, uning sog‘lom yashash huquqini chetda qoldirib bo‘lmaydi. Shuning uchun profilaktikaga asoslangan salomatlikni asrash modeliga o‘tish vazifasi katta ma’naviy ahamiyatga ega. Chunki salomatlik — faqat shifokorning mas’uliyati emas. Insonning o‘z tanasi va hayotiga munosabati ham madaniyatdir. Profilaktik ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tish, zararli odatdan voz kechish, jismoniy faollikka e’tibor berish, farzandiga sog‘lom turmush tarzini namuna qilib ko‘rsatish oddiy maishiy odatlardek ko‘rinadi. Aslida esa bular insonning o‘zi, oilasi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, inson qadri davlatning insonga munosabati bilangina emas, insonning o‘ziga munosabati bilan ham o‘lchanadi.

Uchinchi yo‘nalish — yuqori texnologiya va mehnat unumdorligiga asoslangan iqtisodiyot. Bu yerda faqat texnik modernizatsiya haqida gap ketmayapti. Texnologik taraqqiyotdan oldin tafakkur taraqqiyoti keladi. Innovatsiyaga ochiqlik, yangilikdan qo‘rqmaslik, xatodan to‘g‘ri xulosa chiqarish, doimiy o‘rganish, ijodiy fikrlash va natija uchun mas’uliyat — bularning barchasi zamonaviy mehnat madaniyatining ma’naviy belgilaridir. Ayniqsa, sun’iy intellekt davrida muhim bir savol paydo bo‘ladi. Endi faqat “nimani yarata olamiz?” emas, “nimani yaratishimiz kerak va uni qanday maqsadda ishlatamiz?” degan savolni qo‘yish zarur. Sun’iy intellekt tibbiy tashxisga yordam berishi ham mumkin, yolg‘on axborotni ommalashtirishi ham. Algoritm insonga bilim yetkazishi ham mumkin, uni yopiq axborot muhitiga qamab qo‘yishi ham. Demak, texnologik qudrat axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashishi shart. “Texnologiya” va “mas’uliyat” inson manfaatiga xizmat qiladigan taraqqiyot bo‘lishi lozim.





Shu nuqtada yoshlarga munosabat ham o‘zgarishi kerak. Yoshlarni faqat turli zararli ta’sirlardan himoya qilinishi kerak bo‘lgan “tarbiya obyekti” sifatida ko‘rish zamonaviy jamiyat uchun yetarli emas. Yoshlar g‘oya yaratadigan, startap qiladigan, ilm bilan shug‘ullanadigan, mahalla va jamiyat muammosiga yechim taklif etadigan, axborot makonida milliy kontent va intellektual mahsulot yaratadigan ijtimoiy subyekt bo‘lishi kerak. Ma’ruzada xalqaro olimpiada va tanlovlarda yuqori natija ko‘rsatayotgan yoshlarga kelajak bunyodkorlari sifatida munosabat bildirilishi ham shu nuqtayi nazardan muhim. Demak, yoshlar siyosatidagi yangi vazifa faqat “yoshni qanday tarbiyalaymiz?” degan savoldan iborat bo‘lmaydi. Yana bir savol qo‘shiladi: “yoshlarga mamlakat kelajagini yaratishda qanday real ishtirok maydoni beramiz?”. Tarbiya obyektidan taraqqiyot subyektiga o‘tishning mohiyati ham ana shunda.

Mas’uliyat madaniyati: tabiat va qonunga munosabat

Ma’naviyat ko‘pincha insonning boshqa inson bilan munosabati orqali tushuntiriladi. Lekin insonning tabiatga va qonunga munosabati ham uning ma’naviy qiyofasini belgilaydi. Shu jihatdan to‘rtinchi va beshinchi milliy dasturlar o‘rtasida chuqur ichki bog‘liqlik bor. Birinchisi — tabiat oldidagi, ikkinchisi — jamiyat va qonun oldidagi mas’uliyat.

Global iqlim o‘zgarishi, suv taqchilligi va ekologik xavflar kuchayib borayotgan sharoitda ekologik muammoni faqat muhandislik va texnologiya bilan hal etib bo‘lmaydi. Nutqda suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirish vazifasi qo‘yilib, tabiatga munosabat xalq madaniyati va taraqqiyot sifati bilan bog‘langan. Bu juda muhim yondashuv. Chunki suvni tejaydigan eng zamonaviy texnologiyani o‘rnatish mumkin, ammo insonda tejamkorlik madaniyati bo‘lmasa, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Ko‘p qavatli uy yonida daraxt ekish mumkin. Lekin uni asrash “kimningdir vazifasi” deb qaralsa, yashil hudud uzoq yashamaydi. Ko‘chada chiqindi qutisi o‘rnatish mumkin. Ammo inson qog‘ozni yerga tashlab, “farrosh tozalaydi” deb o‘ylasa, to‘g‘ri bo‘lmaydi, albatta. Shuning uchun ekologik siyosat bilan birga ekologik ma’naviyat ham shakllanishi zarur. Ekologik ma’naviyatning eng oddiy ifodasi inson o‘zidan keyin ham hayot davom etishini anglashidir. Suvni tejash faqat kommunal xarajatni kamaytirish emas. U ertangi avlodning suvdagi ulushiga daxl qilmaslik madaniyatidir. Daraxtni asrash faqat ko‘kalamzorlashtirish rejasini bajarish emas. U hali tug‘ilmagan bolalarning toza havoga bo‘lgan huquqini tan olishdir. Shunda ekologik mas’uliyat texnik masaladan axloqiy masalaga aylanadi. Xuddi shu kabi qonun ustuvorligi ham faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan ta’minlanmaydi. Qonun kuchli bo‘lishi uchun uni himoya qiladigan davlat institutlari zarur. Lekin qonun ustuvor bo‘lishi uchun uni hurmat qiladigan fuqaro ham kerak.

Ko‘chada kamera borligi uchun qoidaga amal qilish — nazorat natijasi. Kamera bo‘lmaganida ham qoidani buzmaslik — madaniyat. Navbatda tanish-bilish orqali oldinga o‘tib ketmaslik, davlat mulkiga “birovniki” deb qaramaslik, soliqni majburiyat emas, jamiyat oldidagi mas’uliyat deb anglash, o‘z huquqini talab qilar ekan, boshqa insonning huquqini ham tan olish — huquqiy ma’naviyat ana shunday oddiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Shu sababli qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish va huquqiy tarbiyani maktabdan boshlash vazifasi strategik ahamiyatga ega.

Bolaga qonun moddalarini yodlatishning o‘zi huquqiy tarbiya emas. Unga adolat nima ekanini, umumiy qoida nima uchun barchaga bir xil tatbiq etilishini, boshqa insonning haqi qayerdan boshlanishini hayotiy vaziyatlar orqali anglatish kerak. Shunda qonun tashqi majburlovdan ichki e’tiqodga aylanadi. Huquqiy davlatning eng kuchli poydevori ham har bir fuqaroning yonida turgan nazoratchi emas, balki insonning ichki huquqiy mezonidir.

Mahalla va bag‘rikenglik: birdamlikning ijtimoiy kapitali

Milliy yuksalishning yana ikki muhim tayanchi — mahalla va bag‘rikenglik. Bir qarashda ular turli yo‘nalishlardek ko‘rinadi. Aslida esa har ikkisi jamiyatda ishonch va birdamlikni shakllantiradi.

Ma’ruzada mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish, hududiy dastur va loyihalarni aholining real talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilash yondashuvi ilgari surildi. Bu mahallaning mohiyatini kengaytirib yuboradi.

Mahallaning kelajakdagi kuchi mablag‘ yoki vakolatgina emas, ijtimoiy ishonch ishlab chiqara olishi bilan ham o‘lchanadi. Ishonch bor joyda odamlar hamkorlik qiladi. Hamkorlik bor joyda umumiy muammoga yechim topish osonlashadi. Daxldorlik paydo bo‘lgan joyda esa “davlat hal qilsin” degan passiv pozitsiya asta-sekin “biz nima qila olamiz?” degan fuqarolik pozitsiyasiga aylanadi.

Bag‘rikenglik ham ijtimoiy ishonchning yanada kengroq ko‘rinishidir.

O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillarining tinch va ahil yashayotgani, nutqda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik mamlakatning bebaho boyligi sifatida baholanishi bejiz emas. Ammo bag‘rikenglikni “hamma bir xil fikrlaydi”, degan tushuncha bilan adashtirmaslik kerak. Bir xillik — birdamlik emas. Birdamlik farqlarni saqlagan holda umumiy maqsad atrofida birlasha olish qobiliyatidir. Boshqa millat vakili o‘z ona tilida so‘zlashishi, boshqa din vakili o‘z e’tiqodiga amal qilishi yoki ikki inson muayyan masalada turlicha fikr bildirishi jamiyat uchun xavf emas. Xavf farqni dushmanlikka aylantirishdan boshlanadi. Shuning uchun zamonaviy bag‘rikenglik faqat “chidash” emas, balki muloqot qila olish, o‘zga inson qadr-qimmatini tan olish, turlilik bilan birga yashash madaniyatidir. Bu madaniyat qanchalik kuchli bo‘lsa, ijtimoiy ishonch ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu ma’noda, bag‘rikenglikni ijtimoiy barqarorlik kapitali deb atash mumkin. Bag‘rikenglik ishonchni, ishonch birdamlikni, birdamlik esa ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Mustahkam hamjihatlik esa barqarorlik va taraqqiyotning muhim ma’naviy asosiga aylanadi. Bugungi notinch dunyoda bu resurs ayrim moddiy boyliklardan ham qimmatliroqdir. Chunki iqtisodiy yo‘qotishni vaqt o‘tib tiklash mumkin. Jamiyat ichida singan ishonchni tiklash esa ancha qiyin.

Milliy yuksalish, avvalo, insonning ichki yuksalishidan boshlanadi

Shunday qilib, kelgusi o‘n yillikka mo‘ljallangan yettita milliy dasturga ma’naviy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, ular alohida sohalar yig‘indisi emas, balki yagona ijtimoiy-ma’naviy tizim ekani ko‘rinadi.

Bilim insonga imkoniyat beradi. Salomatlik uning ana shu imkoniyatdan foydalanishiga zamin yaratadi. Innovatsion tafakkur yangi natija yaratishga undaydi. Ekologik madaniyat insonni kelajak avlod oldida mas’ul qiladi. Huquqiy ma’naviyat adolat va tartibni ta’minlaydi. Mahalla odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bag‘rikenglik esa turlicha insonlarni umumiy vatan va umumiy maqsad atrofida birlashtiradi.

Shu sababli “milliy yuksalishning ma’naviy yettiligi”ni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bilimli, ammo mas’uliyatsiz inson taraqqiyot uchun xavf ham tug‘dirishi mumkin. Texnologik jihatdan rivojlangan, ammo huquq va axloq qadrlanmaydigan jamiyat barqaror bo‘lmaydi. Iqtisodiy boy, ammo tabiatga nisbatan iste’molchilik munosabati kuchli mamlakat o‘z kelajagi hisobiga yashaydi. Qonuni mukammal, ammo odamlar o‘rtasida ishonch bo‘lmagan muhitda jamiyatning ichki energiyasi pasayadi. Shu bois, yangi bosqich ma’naviyat haqidagi tasavvurimizni ham yangilashni talab qiladi. Ma’naviyatni faqat tadbir, uchrashuv, ma’ruza, kitob yoki shior bilan tenglashtirish yetarli emas.

Ma’naviyat insonning ish joyiga vaqtida kelishidan tortib, davlat mulkiga munosabatigacha, farzandiga bergan tarbiyasidan tortib, internetda tarqatayotgan axborotigacha, suvdan foydalanishidan tortib, yo‘l harakati qoidasiga amal qilishigacha, o‘z huquqini talab etishidan tortib, boshqalarning huquqini hurmat qilishigacha bo‘lgan kundalik xulq-atvorda namoyon bo‘ladi.

Demak, XXI asr jamiyatida ma’naviyat mavhum tushuncha emas. Ma’naviyat ijtimoiy munosabatlar sifatidir. Milliy yuksalishning eng katta mezoni ham shu yerda.

Mustaqillikning o‘ttiz besh yili xalqimizning o‘zligini qayta anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy davlatchilik poydevorini mustahkamlash davri bo‘lgan bo‘lsa, kelgusi o‘n yillik ana shu ma’naviy salohiyatni bilim, innovatsiya, adolat, ekologik mas’uliyat, hamjihatlik va bag‘rikenglik orqali yangi taraqqiyot kuchiga aylantirish davri bo‘lishi lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, milliy yuksalish, eng avvalo, insonning ichki yuksalishidan boshlanadi. Uning eng mustahkam kafolati ham ana shunda.



Kamolot pillapoyasi

MUVAFFAQIYAT YO‘LI KITOB BILAN SHIDDAT OLADI

Kitob — inson uchun eng yaxshi suhbatdosh. U qarshingizga kelib, o‘zini majburan tanitmaydi, baland ovozda gapirmaydi, e’tibor talab qilmaydi. Shunchaki qo‘lga olinadi, varaqlanadi va asta-sekin insonning ichki dunyosiga kirib boradi. Kitobxonlikning eng katta mo‘jizasi ham shunda: inson joyidan qimirlamagan holda dunyoning turli manzillariga sayohat qiladi, o‘zi yashamagan zamonlarda yashaydi, o‘zi uchratmagan insonlar bilan suhbatlashadi va eng muhimi, o‘zligini anglashga yaqinlashadi.



Ozodbek YIGITALIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi “Kitobxonlar klubi” rahbari

Bugun yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda masalani faqat “ko‘proq kitob o‘qish kerak” degan oddiy chaqiriq bilan cheklab bo‘lmaydi. Kitobning qadrini raqamlar bilan baholash qiyin, ammo uning atrofida shakllangan muhitni ayrim statistik ko‘rsatkichlar orqali tasavvur qilish mumkin. Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazi huzurida faoliyat yuritayotgan “Kitobxonlar klubi” ana shunday muhitni yaratish yo‘lidagi tashabbuslardan. Bugun klub faoliyatiga 1000 dan ortiq talaba jalb etilgan. Ularning ba’zilari kitobni bolalikdan sevib mutolaa qilib kelgan bo‘lsa, juda ko‘pi aynan talabalik yillari kitobga mehr qo‘ydi.

mumkinligini isbotlamoqda. Chunki mutolaaning eng go‘zal manzaralaridan biri xonadonda turli avlod vakillarining bitta kitob atrofida jamlanib suhbat qurishidir. Bobo o‘qigan kitobni ota eslaydi. Ota o‘qigan asarni farzand o‘qiydi. Farzand esa u orqali o‘zi uchun butunlay yangi dunyoni kashf etadi. Shu tariqa mutolaa avloddan avlodga o‘tuvchi ma’naviy merosga aylanadi.

Kitobxonlik va ijod — bir-biridan ajralmaydigan, uzviy tushunchalar. Ko‘p o‘qigan insonning qalbida bir kun kelib o‘z so‘zini aytish ehtiyoji tug‘iladi. Boshqalarning hikoyalarini o‘qib ta’sirlangan qalb, albatta, o‘z hikoyasini yozishga intiladi. She’r o‘qigan yosh she’r qoralashga urinadi, adabiy asar muhitida yashagan



Kitobxonlik sari eltuvchi yo‘llar ham zamon bilan hamnafas o‘zgarib bormoqda. Agar kecha kitob o‘qish uchun kutubxonaga borish kerak bo‘lgan bo‘lsa, bugun raqamli texnologiyalar mutolaani insonning kundalik hayotiga yaqinlashtirib qo‘ygan. “Mutolaa” kabi zamonaviy platformalar kitobni elektron qurilmalarga ko‘chirib, yoshlar uchun mutolaaning yangi shakllarini yaratmoqda. Kitobning shakli o‘zgarishi mumkin, ammo uning inson tafakkuriga ta’siri o‘zgarmaydi. Qog‘ozdagi sahifa ham, ekrandagi sahifa ham birgina maqsadni — inson tafakkurini uyg‘otishni ko‘zlaydi. Shunday ekan, bugungi yoshlarni kitobga olib kirishda zamonaviy imkoniyatlardan o‘rinli foydalanish hamda ularni an’anaviy mutolaa muhiti bilan uyg‘unlashtirish juda muhim.

“Yosh kitobxon” tanlovi yoshlarning kitobga munosabatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqqan ulkan tashabbuslardan biri bo‘ldi. Bu tanlov nomining o‘zidayoq teran ma’no mujassam: “yosh” — kelajakni, “kitobxon” esa tafakkur va ma’rifatni o‘zida ifoda etadi. Kitob o‘qigan yigit-qizning fikr doirasi kengayadi hamda dunyoni boshqalarning nigohi bilan ham ko‘rishni o‘rganadi. “Kitobxon oila” kabi tashabbuslar esa kitobxonlikni oilaviy qadriyat darajasiga ko‘tarish talaba o‘z fikrlarini badiiy libosda ifodalashga harakat qiladi. Shu ma’noda, “Kitobxonlar klubi” bilan bir qatorda faoliyat yuritayotgan “Mushoira klubi” ham yoshlarning ma’naviy hamda ijodiy dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, kitobxonlik biror tadbir doirasidagi bir kunlik aksiya emas. U bugun boshlangan bo‘lsa, ertaga, albatta, davom etishi, yillar o‘tib esa insonning xarakteri va dunyoqarashida mustahkam ifodasini topishi kerak. Bugun qaysidir talaba kitob o‘qisa, ertaga u o‘z farzandiga ham mutolaani tavsiya qiladi. Bugun biror yosh yurakdan she’r yozsa, ertaga uning bitgan satrlari boshqa bir qalbga yetib borib, uni to‘lqinlantiradi.

Kitobning qudrati ham aslida shunda. U shovqin-suron bilan emas, aksincha, inson hayotiga ohista kirib keladi. Ammo u bir marta qalbni zabt etsa, u yerdan hech qachon chiqib ketmaydi. Bugun biz do‘stlarimizni kitob o‘qishga chorlayapmiz. Aslida ularni kitob orqali yana o‘ziga, o‘zligiga chorlayapmiz.

Mutolaa bilan boshlangan yorug‘ yo‘l hech qachon zoye ketmaydi. Chunki kitob o‘qigan insonning qo‘lida faqat bir asar emas, butun boshli olam gavdalanadi. Olamni uqa olgan inson esa, albatta, bir kun kelib o‘zining go‘zal dunyosini barpo etishga harakat qiladi.



Faxr

Samarqand shahrida davom etayotgan 46-butunjahon shaxmat olimpiadasida murosasiz bellashuvlar jarayonida ayni dam peshqadam bo‘lib turgan Vatanimiz shaxmatchilariga bag‘ishlanadi.

Bu dunyo shaxmatdir. Tafakkur jangi.
Oq-qora yo‘l ichra elim, g‘olib bo‘l,
Tirik daholarim, O‘zbekistonni
Omon olib o‘ting, Alloh bersin yo‘l!

Javohir degani nodir aslida,
Nodir javohirlar bo‘lmagay abas.
Yurtim, buyuklikning qutlug‘ faslida
Jahon shiddatingga qilmoqda havas.

Temur daholarni jamlagani chin,
Porlagani rostdir ilm quyoshi!
Yetti yuz yil o‘tib ularni bugun
Yana Samarqandda yig‘di Yurtboshi!

Komil bobolarning yoqqan chirog‘i,
Farzandlar ruhida taratdi ziyo.
Buyuklarga qudrat bu yurt tuprog‘i,
Mana, o‘zing guvoh! Ko‘rib qo‘y, dunyo!

Aql ipi birla ko‘kda yulduzni,
Zaminga bog‘lagan ahli zakovat.
Avlodi ko‘rsatdi bir bora o‘zni,
Shaxmat maydoniga kelganda navbat!

Dunyo shu, kim yashar boylikka uchib,
Qay bir zot zo‘rman der, qo‘lida qurol!
Tafakkur bog‘ida oftobni quchib,
Ona O‘zbekiston, turishing halol!

Ilm-u harb bobida balanddir haddim,
Alloma yurtim bor, tan olgay ochun.
Tamaddun sahnida tik erur qaddim,
Dunyo, beshigingni tebratganim chin!

G‘oliblik muborak, Vatan — onajon!
Oq-qora yo‘llarda sira yema pand.
Zamin zukkolari jam bo‘lgan shu on
Jahonga mash’ala tutdi Samarqand!

Qo‘chqor NORQOBIL



Taqdimot

“Dars”

Ustoz qadri va tanlov mas’uliyati haqidagi film

Aristotelning bir gapi bor: “Bolalarni yaxshi tarbiyalaganlar ularni dunyoga keltirganlardan ko‘ra ko‘proq hurmatga loyiq: biri hayot taqdim etsa, ikkinchisi yaxshi va to‘g‘ri yashash hadisini o‘rgatadi”.

Yangi o‘zbek filmi mana shu ko‘hna fikrni bugungi kun voqealari orqali ekranga olib chiqdi. Joriy yil 24-sentabr kuni O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyida “Dars” badiiy filmining premyerasi bo‘lib o‘tdi. 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida taqdim etilgan kinokartinada pedagogning inson hayotidagi o‘rni, kitobxonlik, ta’lim-tarbiya va yoshlarning o‘z yo‘lini topishi mavzulari yaxlit syujet doirasida jamlangan.

Kontent markazi hamda “MA’NO CINEMA” hamkorligida suratga olingan filmga Otabek Yo‘ldoshev rejissyorlik qilgan. Bosh rollarda Mavluda Hikmatova, Malika Ibrohimova, Lola Eltoyeva, Tolib Mo‘minov, Abbos Bahodirov, Sanjar Namozov, Umid Uzoqov, Shohrux Hamdamov va boshqa aktyorlar ishtirok etgan.

Film voqealari Oyqiz ismli qizning taqdiri atrofida kechadi. U model bo‘lish orzusida Toshkentga keladi. Katta shahar, yangi muhit va o‘zi tasavvur qilgan hayot uni oldinda kutmoqda. Biroq Oyqiz tez orada tanlagan yo‘li o‘zi o‘ylaganidek oson emasligini anglay boshlaydi. Shu soniyadan qahramon uchun ancha murakkab savol paydo bo‘ladi: endi qaysi yo‘ldan borish kerak?

Aslida, filmdagi asosiy masala kasb tanlashdan keng. Bir insonning orzu bilan haqiqiy hayot o‘rtasidagi farqni anglashi, xato qilishi, boshqalar ta’sirida qabul qilingan qarorlardan mustaqil fikrigacha yetib borishi Oyqiz qismati orqali ko‘rsatiladi. U dastlab



shoshqaloq, xayollariga tez ergashadigan qiz sifatida ko‘rinadi. Voqealar rivojlangani sari uning odamlarga, kitobga, mehnatga va o‘z kelajagiga munosabati o‘zgarib boradi. Bu o‘zgarishda Hanifa ayaning o‘rni katta.

Oyqiz yashaydigan xonadon egasi bo‘lgan bu ayol filmga shunchaki yoshi ulug‘ qahramon sifatida kiritilmagan. Uning hayoti, odamlarga munosabati va boshidan kechirgan voqealari Oyqiz uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘taydi. Qizning kim bo‘lishi haqidagi qaror ham aynan shu muhitda asta-sekin shakllanadi. Hanifa aya obrazi orqali ustozning inson tarbiyasi va kamolotidagi o‘rni, ustoz-shogird an’analari hamda ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati ochib berilgan.

Filmning ikkinchi muhim mavzusi — kitob. Bugun kitobxonlik haqida ko‘p gapiriladi. “Dars”da esa kitob alohida targ‘ibot vositasi sifatida syujetga sun’iy qo‘shib qo‘yilmay, Oyqizning dunyoqarashi o‘zgarib borishini ko‘rsatuvchi vositalardan biriga aylanadi. Mualliflar filmni yaratishdan ko‘zlangan maqsadlardan biri yoshlar orasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish va ma’rifat g‘oyalarini targ‘ib qilish ekanini ham qayd etgan. Shu ma’noda, kitob o‘qish filmda muayyan odatdan ko‘ra kengroq talqin qilinadi. Odam o‘qigani sari o‘z hayotiga tashqaridan nazar tashlashni, boshqa taqdirlarni tushunishni, istaklarning oqibatini oldindan tasavvur qilishni o‘rganadi. Oyqizning ichki “men”i o‘zgarishida ham mutolaa omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bu jihat, ayniqsa, bugungi yoshlar hayoti bilan bog‘langanda juda ahamiyatli. Hozir kasb va hayot yo‘lini tanlash imkoniyati avvalgi avlodlarnikiga qaraganda ancha keng. Bir vaqtning o‘zida tanlovlar ko‘payishi adashish ehtimolini ham oshiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda namoyish qilinadigan muvaffaqiyat, mashhurlik va chiroyli hayot manzaralari insonning xohishi bilan haqiqiy qobiliyati o‘rtasidagi chegarani ba’zan xiralashtirishi mumkin.

Ustoz haqida film ishlashning o‘zi murakkab. Chunki bu mavzuda tayyor ssenariylar va odatiy xulosalarga tushib qolish oson. “Dars” esa mavzuga bir qizning taqdiri orqali kirib boradi. Tomoshabin Oyqizning tanlovlarini kuzatar ekan, film qo‘yayotgan savollarga ham duch keladi: inson o‘z yo‘lini qanday topadi? Bizga ta’sir ko‘rsatgan muallimlarning qadrini qachon anglaymiz? O‘qigan kitoblarimiz qarorlarimizga qay darajada ta’sir qiladi? Bir inson boshqa birovning hayot o‘zanini o‘zgartirishi mumkinmi?

Pedagogning mehnati, kitob bilan oshno bo‘lish, o‘z tanlovi uchun mas’uliyatni his qilish har qanday davr va avlod uchun doimo dolzarb masala ekanini hisobga olsak, yuqoridagi kabi savollar “Dars”ni faqat bayram arafasida namoyish etiladigan mavsumiy film doirasida qoldirmaydi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza



Telefon ekranini ochgan inson ko‘pincha o‘zi tanlayotgandek o‘ylaydi. Aslida, uning oldiga qaysi xabar, qaysi video va qaysi fikr birinchi chiqishini algoritm belgilaydi. Bir rolik tugamay turib, ikkinchisini taklif etadi. Bir xariddan keyin esa o‘nlab o‘xshash mahsulotni ko‘rsatadi. Biz esa bu tanlovlarni ba’zan o‘z xohishimiz deb qabul qilamiz. Shu yerda oddiy, ammo jiddiy savol tug‘iladi: texnologiya hayotimizni yengillashtirayotgan bir paytda o‘z fikrimiz, vaqtimiz va qarorimizga o‘zimiz egalik qilyapmizmi?

Nurnazar PIRNAZAROV,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori



RAQAMLASHTIRISHDA AZALIY QADRIYATLARNING MEZONI QANDAY?

Kuchli iqtisodiyot zamonaviy texnologiyalarga tayanadi. Texnologiyaning insonga qay tarzda xizmat qilishini esa ma’naviy mezon belgilaydi. Vijdon, adolat va mas’uliyatdan uzilgan raqamlashtirish sur’at beradi, lekin to‘g‘ri yo‘nalishni kafolatlamaydi.

2024-yili mamlakatimizda Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan edi. Joriy yilda esa sun’iy intellektni yaratish, joriy qilish va undan foydalanish bo‘yicha etika qoidalari tasdiqlandi. Ularda qonuniylik, adolat, ochiqlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, inson nazorati va javobgarlik asosiy tamoyillar sifatida belgilandi. Demak, davlat siyosati texnologiyani rivojlantirish bilan birga uning inson taqdiriga ta’sirini ham hisobga olmoqda. Endi bu tamoyillar oilada, ta’limda, mehnatda va axborot iste’molida kundalik odatga aylanishi kerak.

Odatda qadriyatni asrash deganda uni har qanday o‘zgarishdan himoya qilish tushuniladi. Biroq bu qarash yetarli emas. Halollik, or-nomus, oilaga sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat va mehr-oqibatning mohiyati barqarordir. Ammo ular namoyon bo‘ladigan muhit o‘zgardi. Ilgari insonning raqamli izi ham shaxsiyatining ajralmas bir qismiga aylangan. Birovning sha’niga yozilgan izoh, tekshirilmay tarqatilgan xabar, ruxsatsiz ulashilgan surat yoki sun’iy intellekt tayyorlagan matnni o‘ziniki qilib ko‘rsatish ham aslida axloqiy tanlovdir.

Shuning uchun ham raqamli davrda qadriyatlarni saqlash degani telefonni yopib qo‘yish yoki texnologiyani rad etish emas. Bu — yangi sharoitda ham inson bo‘lib qolish, ya’ni haqiqatni yolg‘ondan, qulaylikni halollikdan, tezlikni sifatdan ustun qo‘ymaslik qobiliyatidir. Shu ma’noda, teng imkoniyat xayr-ehson emas, balki taraqqiyot sifatiga qo‘yiladigan talab. Milliy tillarda ishonchli resurslar yaratish, maktablar infratuzilmasini yangilash va raqamli savodxonlikni kundalik hayot ko‘nikmasiga aylantirish ma’naviy siyosatning ham amaliy vazifasi.

Sun’iy intellekt ishonarli uslubda noto‘g‘ri ma’lumot berishi ham mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda esa ko‘p ko‘rilgan xabarlar aksariyat hollarda haqiqatdek qabul qilinadi. Kecha mahalla yoki ishxonada aytilgan asossiz gap bir necha kishiga yetib borgan bo‘lsa, bugun bitta soxta xabar minglab odamlarning kayfiyati va qaroriga ta’sir qilishi mumkin. Agar axborotning qiymati uning to‘g‘riligi bilan emas, balki tezligi va ommalashuvi bilan belgilansa, jamiyatda ishonch yemiriladi.

Axborot madaniyati manbani so‘rashdan boshlanadi. Muallif kim? Dalil qayerdan olingan? Matn, ovoz yoki tasvir o‘zgartirilmaganmi? Boshqa ishonchli manba uni tasdiqlaydimi? Bu savollar hamma narsaga gumon bilan qarash uchun emas, balki mas’uliyat bilan ishonish uchun kerak.

Amerikalik olim Gerbert Saymon axborot ko‘paygan joyda e’tibor tanqislashishini ijtimoiy tarmoqlar hali paydo bo‘lmay turib aytgan edi. Bugun bu fikrni har birimiz o‘z hayotimizda his qilmoqdamiz. Telefonni biror xabarni ko‘rish uchun ochamizu, bir necha daqiqadan keyin uni nima maqsadda ochganimizni unutib qo‘yamiz. Nafaqat bolalar, balki kattalar ham bir sahifali matnni diqqati bo‘linmay o‘qishga qiynalmoqda.

Turli platformalar insonning vaqti uchun o‘zaro raqobatlashadi. Qisqa, keskin va hissiyot uyg‘otuvchi kontent ko‘proq tarqaladi. Bu holat tizimning, albatta, yomon niyat bilan qurilganini anglatmaydi. Ammo uning iqtisodiy mantig‘i insonning sabr bilan o‘qishini, bir masala ustida chuqur o‘ylashi yoki sukut saqlab o‘zi bilan qolishini qo‘llab-quvvatlamasligi mumkin.

Raqamli gigiyenani faqat ekran vaqtini qisqartirish deb tushunish ham yuzaki yondashuv. Asosiy maqsad insonning o‘z e’tiborini boshqara olishidadir. Qaysi xabarga vaqt ajratish, telefonni qachon chetga olib qo‘yish, nimani o‘qish va nimani o‘tkazib yuborishni ongli ravishda tanlash ham ma’naviy intizomdir.

Algoritm tavsiya beradi, lekin qarorning axloqiy yuki inson zimmasida qoladi. O‘qituvchi baholashda, shifokor tashxis qo‘yishda, rahbar xodim tanlashda yoki jurnalist axborot tayyorlashda sun’iy intellekt xulosasiga tayanishi mumkin. Ammo “tizim shunday dedi” degan javob mas’uliyatni bekor qilmaydi.

Etika qoidalarida inson huquq va erkinliklariga daxldor yuridik ahamiyatga ega qarorlar qabul qilish, shuningdek, tashxis va davolash kabi sog‘liqni saqlash masalalarida faqat sun’iy intellekt xulosasiga tayanish mumkin emasligi belgilandi. Bu talabning mazmuni aniq: mashina hisoblaydi va tavsiya qiladi, inson esa tekshiradi, tushuntiradi va javob beradi.

Bu yerda ikkita xavf bor. Birinchisi, inson texnologiyaga haddan tashqari ishonib, o‘z malakasini ishlatmay qo‘yadi. Ikkinchisi, mas’uliyat noaniqlashadi: xato uchun dasturchi, tashkilot yoki foydalanuvchidan qay biri javob berishi tushunarsiz bo‘lib qoladi. Sun’iy intellekt qo‘llanadigan har bir muhim jarayonda oxirgi qarorni kim qabul qilishi, natijani kim tekshirishi va fuqaro kimga murojaat qilishi aniq bo‘lishi kerak.

Yoshlarni texnologiyadan butunlay uzib qo‘yish mumkin emas. Qat’iy taqiq ko‘pincha yashirin foydalanishni kuchaytiradi, lekin to‘g‘ri tanlov ko‘nikmasini bermaydi. Samarali yo‘l — bolaga tayyor hukmni aytishdan ko‘ra, unga savol berish, manbalarni solishtirish, shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va raqamli xatti-harakatlarining boshqalarga ta’sirini anglashni o‘rgatishdir.

Maktab bilim berish bilan birga raqamli odobni ham o‘rgatishi kerak. Oliy ta’lim esa sun’iy intellektdan foydalanishni yashirishga undaydigan noaniq munosabatdan voz kechishi lozim. Qaysi ishda undan foydalanish mumkinligi, qachon manba ko‘rsatilishi kerakligi, qaysi vazifani talabaning o‘zi bajarishi shartligi — bularning barchasi ochiq yozilishi zarur. Aks holda, biz talabadan halollikni talab qilamiz, ammo halollikning yangi qoidalarini tushuntirmagan bo‘lamiz.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni faqat bayram va tadbirlardagina eslash yetarli emas. Ular yoshlar har kuni foydalanayotgan raqamli muhitda ham sifatli, ishonchli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Qo‘lyozmalar, og‘zaki ijod, oilaviy xotiralar, hunarmandchilik va mahalliy tarixni raqamlashtirish oddiy ish emas, balki avlodlar o‘rtasidagi muloqotni davom ettirishdir.

Bugun texnologiyadan qo‘rqadigan avlod ham, unga ko‘r-ko‘rona ishonadigan avlod ham kerak emas. Uni yaxshi biladigan, ammo o‘z qarorini vijdon bilan baholaydigan insonlar kerak. Raqamli taraqqiyotni to‘rtta oddiy savol bilan baholash mumkin. Ya’ni undan foydalanish imkoniyati adolatlimi, axborot ishonchlimi, inson o‘z e’tiborini boshqara olyaptimi, yakuniy qaror va javobgarlik kimda?

Bu savollar faqat vazirlik yoki mutaxassislargagina tegishli emas. Ota-ona farzandiga telefon berayotganda, o‘qituvchi topshiriq tayyorlayotganda, talaba matn yozayotganda, shifokor raqamli xulosani ko‘rayotganda va jurnalist xabar tarqatayotganda ham shu mezonlarga ehtiyoj sezadi. Ma’naviy qadriyatlar texnologiyaga qarshi qo‘yiladigan devor emas. Ular texnologiyaning insonga xizmat qilish yo‘nalishini belgilaydigan mezondir.

Raqamli kelajakda eng katta yutuq mashinaning insonga o‘xshab gapirishi emas. Eng katta yutuq — insonning texnologiyadan foydalanib ham o‘z aqli, vijdoni va mas’uliyatini boshqa bir tizimga topshirib qo‘ymasligi. Tanlovni algoritm taklif qilishi mumkin. Lekin qanday inson bo‘lib qolishimizni hamon o‘zimiz hal qilamiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.